

農業技能測定試験


Qishloq xo'jaligi bo'yicha mahoratni aniqlash test sinovi

テキスト 畜産農業全般

《O'quv qo'llanma Umumiy chorvachilik》



ウズベキスタン語版
O'zbek tilida sharhi



一般社団法人 全国農業会議所

Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi

Qayta nashr qaydnomasi

Nashr raqami	Qayta ko'rish chiqilgan sana	Qayta nashr izohi	Qayta ko'rib chiqilgan qism
1.0	17 fevral 2020 yil	Ilk nashr chiqarildi	Ilk nashrga chiqarildi
1.1	7 avgust 2020 yil	Ba'zi iboralarga tuzatish kiritildi	<p>① P7 - 3 qator <Qayta ko'rib chiqilishidan avval> Tug'ilgan vaqtdagi vazni taxminan 30 kg < Qayta ko'rib chiqilishidan so'ng> Tug'ilgan vaqtdagi vazni taxminan 40 kg</p> <p>② P57 - 3 qator <Qayta ko'rib chiqilishidan avval> Axtalangan sigirlarning tug'ilgan vaqtidagi vazni < Qayta ko'rib chiqilishidan so'ng> Gibridning tug'ilgan vaqtidagi vazni</p>

Soʻz boshi

Yaponiyaning qishloq xoʻjaligi obʻyektlarida ishchi kuchi tanqisligi sezilarli darajada jiddiylashmoqda. Shu sababli, Yaponiyaning qishloq xoʻjaligi, yer maydonlarida muhim oʻrin tutuvchi xorijiy ishchi kuchi kadrlarini jalb qilish uchun yangi yashash maqomi sifatida “Maxsus mahorat” ga muvofiqlik sertifikatini ishlab chiqildi. Chet-elliklarni maxsus mahorat dasturi asosida taʼlim olishidan tashqari, Yaponiya qishloq xoʻjaligini qoʻllab quvvatlash va rivojlantirish kabi mexanizmlarining oʻsishi kutilmoqda.

Chet-elliklarni ushbu loyiha asosida faoliyat yurita olishlari uchun Yaponiya hukumati tomonidan belgilangan qishloq xoʻjaligiga oid bilim va koʻnikmalarga yetarlicha ega boʻlishlari, talab qilinadi.

Shu sababli, 2019 yildan boshlab, Qishloq, Oʻrmon Xoʻjaligi va Baliqchilik Vazirligi tomonidan, chet-elliklarni Yaponiya davlatiga kelishidan avval, ulardagi bilim va koʻnikmalarni aniqlovchi va baholovchi (Qishloq Xoʻjaligi boʻyicha mahorat testi) test sinovi, Milliy Qishloq Xoʻjalik Palatasi tomonidan ishlab chiqildi. Test sinovi 2 turdagi “Madaniy dehqonchilik” va “Chorvachilik” yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi.

Ushbu oʻquv qoʻllanmada, chorvachilik yoʻnalishi boʻyicha test sinovi topshiruvchilariga kerakli bilim va texnologiyalar yanada tushunarli boʻlishi uchun rasm va fotosuratlar bilan boyitilgan. Umid qilamizki, ushbu oʻquv qoʻllanma test sinovi qatnashuvchilari uchun foydali boʻladi.

Umumiy chorvachilik boʻyicha test sinovi, Yaponiyada qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullanish uchun zarur boʻlgan yapon tili darajasini aniqlash va baholash test savollarini ham oʻz ichiga oladi. Test sinovidan oʻtish va tayyorgarlik koʻrish uchun Milliy Qishloq Xoʻjaligi Palatasi tomonidan yaratilgan, yapon tili oʻquv qoʻllanmasidan foydalanishingiz mumkin.

Ushbu oʻquv qoʻllanmani yaratishda yaqindan yordam bergan, Miyao Yoshida (sogʻin sigirlar), Koji Misumi (choʻchqachilik), Akihiro Kinoshita (goʻshtli qoramol) va Miki Sato (parrandachilik) aʼzolariga, Qishloq xoʻjaligi boʻyicha mahoratni aniqlash testlarini ishlab chiqishda koʻmaklashgan Kultivatsiya qoʻmitasiga oʻz minnatdorchiligimizni bildiramiz.

sentabr 2019 yil

Milliy Qishloq Xoʻjaligi Palatasi

Mundarija

I Chorvachilikning xususiyatlari

1	Sut xo'jaligi (sog'iladigan sigirlar)	1
2	Mol go'shtini yetishtirish (go'shtli qoramol) ...	6
3	Cho'chqachilik (cho'chqalar)	10
4	Parrandachilik	19
①	Tuxum qiladigan tovuq	19
②	Go'sht uchun mo'ljallangan tovuqlar	22
5	Boshqa	25
①	Yengil ot	25
②	Asalarichilik	28
6	Tekshirish uchun savollar va topshiriqlar ...	31

II Chorvachilik va yem-ozuqa haqida asosiy bilimlar

1	Sog'in sigir	34
2	Go'sht uchun mo'ljallangan qoramol	49
3	Cho'chqa	58

4 Parrandachilik 64

- ① Tuxum qiladigan tovuq 64
- ② Go'sht uchun mo'ljallangan tovuqlar 86

5 Boshqa 95

- ① Yengil ot 95
- ② Asalarichilik 98

6 Tekshirish uchun savollar va topshiriqlar ... 101

III Kundalik chorvachilikni boshqarish ishlari

1 Fermer xo'jaligi gigiyenasi va xavfsizlik nazorati ... 105

2 sog'in sigir 109

3 Go'sht uchun mo'ljallangan sigirlar 117

4 Cho'chqa 120

5 Parrandachilik (tuxum qo'yuvchi tovuqlar va go'sht uchun tovuqlar) ... 124

6 Boshqa 131

- ① Yengil ot 131
- ② Asalarichilik 133

7**Boshqaruv ishlari va chorva mollarini kuzatishda asosiy jihatlari (amaliy imtixon uchun) ... 137**

8**Tekshirish uchun savollar va topshiriqlar ... 140**

<Qo'shimcha ma'lumotlar>**Chorvachilik terminologiyasi, ko'pincha kundalik ishlarda qo'llaniladi ... 142**

Kirish

Yaponiyaga kelishda, ehtiyot choralar

Yaponiyaga kelganingizda, dehqonchilik yoki chorvachilik ish faoliyati davomida, chorva mollarining yuqumli kasalliklari va zararkunandalarni kirib kelishini oldini olish maqsadida, quyidagi qoidalarga amal qiling.

- Yaponiyaga kelshingizdan 1 hafta avval, chorva mollariga teginmang.
- Umumiy qoidaga asosan, mamlakatga kirib kelganingizdan so'ng, 1 hafta og'ilxona va uning atrofiga kirmang.
- Chet-elda qo'llanilgan ish kiyimlari, ish uchun mo'ljallangan oyoq kiyimlari, etiklar va shunga o'xshash boshqa narsalarni olib kelmang.
- Maxsus guvohnomasi bo'lmagan go'sht maxsulotlari va barcha kolbasa maxsulotlarini Yaponiyaga olib kelish mumkin emas.
- Oila a'zolaringiz va yaqinlaringizdan, Yaponiyaga xalqaro pochta xizmatlari orqali go'sht maxsulotlarini yubormasliklarini ayting.
- Shuningdek, qishloq xo'jaligi bo'yicha ma'sul xodimning ko'rsatmalariga amal qilgan holda, xavfsiz ishni tashkillashtiring.

I Chorvachilikning xususiyatlari



1 Sog'in sigirlar

Aksariyat yapon sog'in sigirlari Golshteyn zotiga mansub bo'lib, (kelib chiqqan mamlakati, Niderlandiya) o'rtacha yillik sut mahsuldorligi 8000 kg dan oshadi.

Ko'p tuqqan sog'in sigirlarga tajribasi bor sigirlar, ilk bor tuqqan sigirlarga esa birinchi marotaba tuqqan sigirlar, deyiladi.



Golshteyn zoti

Sur'at, Chorvachilik Milliy Markazidan olingan



Jersi qoramollari zoti

Sur'at, Chorvachilik Milliy Markazidan olingan



Jigarrang Shveysariyalik qoramol zoti

2 Sut xo'jaligining shakli va ko'lami

- (1) Yaponiya sut fermalarining aksariyati oilaviy fermer xo'jaligidir.
- (2) Biroq, so'nggi yillarda bir qancha fermerlar uyushmalari, korporativ va kompaniya boshqaruvlariga uyushib, boshqarilib kelayotganlari ortib bormoqda.
- (3) Bosh soni juda ko'p bo'lgan sut fermasi, mega ferma, deb ataladi.

Yaponiyada sut xo'jaligi uylari soni har yili kamayib bormoqda, biroq fermer xo'jaligi uylaridagi ishchilar soni ortib bormoqda..

Fermer xo'jaligining bir uyda boqiladigan g'unajinlar sonining o'zgarish ko'rsatkichi


2005 (Heisei 17) yil	2010 (Heisei 22) yil	2014 yil (Heisei 26) yil
38,1 bosh	44,0 bosh	48,0 bosh

3 Yapon g'unajinlarining sut mahsuldorligi ko'rsatkichlari

Yaponiyada g'unajinlarning o'rtacha yillik sut berishi ortib bormoqda. 2014 yilda 8,316kg, lekin 10 yil oldin, 2004 yil 7,619kg ga nisbatan oshib bormoqda.

4 Sog'in sigirlarning hayot tsikli

- Sog'in sigirlar taxminan 6 oylikgacha buzoqlar, so'ng 2 yoshga to'lgunga qadar o'smir sigirlar va ilk tuqqan sigirlar, yetilgan sigirlar, deb ataladi.
- Odatda, sigirlar 14 ~ 15 oylikda, sun'iy urug'lantirish yordamida homilador bo'ladi.
- Sog'in sigirlarning tug'ish oralig'i 365 kun bo'lib, 1 yilda 1 marta ko'payishi mumkin, ammo yapon sog'in sigirlarining tug'ish davri uzoqlashib bormoqda. 1989 yil 405 kun bo'lsa, 2015 yil 433 kunningi tashkil etgan.
- Sog'in sigirlarning homiladorlik davri, 280 kundir (9,3 oy).
- G'unajinlarda buzoqlar tug'ilgandan so'ng, taxminan bir yil davomida, sut sog'iladi va bu davr oralig'ida, keyingi homiladorlik uchun sog'in sigirlarda sun'iy urug'lantirish amalga oshiriladi.
- Keyingi tug'ruqdan 2-3 oy avval, sut sog'ilishi to'xtatiladi va ozuqa moddalari ona va homilaga yetib boorish ta'minlanadi.
- Sog'in sigirlar bu tsiklni 400 ~ 430 kungacha takrorlaydilar va ba'zi ona sigirlar 7 ~8 gacha avlod beradi, lekin o'rtacha 4 ta avlodni tashkil qiladi.



Sog'in sigirlarning hayot tsikli

5 Sog'in sigirlarning xizmat ko'rsatish muddati

- (1) Birinchi buzoqni tug'ish (birinchi tug'ilish) uchun sog'in sigirlarni urug'lash vaqti, odatda 14 ~15 oygacha bo'ladi.
- (2) Tug'ilgach, homiladorlik bo'lmagan davri (urচিতilmagan), davri bo'sh bachadon kunlari, deb ataladi. Tug'ruq oralig'i – bo'sh bachadon kunlariga hamiladorlik davrining qo'shilishiga, aytiladi.
- (3) Masalan, bo'sh bachadon kunlarining soni 120 kun (4 oy) bo'lsa, tug'ruq davri oralig'i 13,3 oy (399 kun) bo'ladi.

- (4) Birinchi tug'ilgan buzoqdan so'ng, undan keyin tug'ilgan buzoqlar 2 avlod, 3 avlod, 4 avlod va hokazo deb ataladi, lekin bular keyingi tug'ilish, deb ataladi.
- (5) Yaponiya sog'in sigirlari (ko'p tug'adigan sigirlar) ning tavsiya etilgan, xizmat qilish muddati 2002 yilda 4,2 avlod, 2007 yilda 4,0 avlod, 2015 yilda 3,5 avlodga yil sayin qisqirib bormoqda.
- (6) Sog'in sigirlarning xizmat qilish muddatini qisqartirishi sabablariga, sut beruvchi organlarining kasallanishi (mastit va boshqalar), reproduktiv kasalliklar, old va orqa tuyoq kasalliklari (tuyoq kasalligi), ovqat hazm qilish tizimida buzilishlar, oyoqqa turolmaslik (sut turib qolganda, isitma ko'tarilishi) va boshqalar sabab bo'ladi.

6 Ozuqa-yemish

- Sog'in sigirlar uchun mo'ljallangan yemishning ikki turi mavjud: konsentrlangan yemish va qattiq turdagi yemishlar mavjud.
- Omuxta, asosan aralash ozuqa (omuxta) shaklida beriladi.
- Qattiq turdagi yemishlar, ozuqaga mahalliy ishlab chiqarilgan silos va xorijiy davlatlardan olib kelingan va Yaponiyada ishlab chiqarilgan pichan kiradi.
- Omuxta- bu xorijdan keltirilgan makkajo'xori, yemish tarkibidagi asosiy dondir.

7 Sut sifatini nazorat qilish

- Har bir sigir sutining sifatida, farq mavjud.
- Fermerlar tomonidan jo'natilgan sutning sifati tekshirilib boriladi.
- Sut sifatini tekshirishda, tarkibidagi- sut yog'i nisbati, sut oqsili nisbati, yog'siz qattiq tarkib nisbati va gigienik toza mahsulot sifatida, tarkibidagi somatik hujayralar va bakteriyalar sonini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

8 Issiq yoz fali va sog'in sigirlar

- Golshteyn sigirlari issiqlikka chidamli bo'lib, qulay harorat oralig'i, 13 dan 18 °C gachadir.
- Yuqori namlik va harorat 30 °C atrofida ko'tarilganda, sog'in sigirlarda quruq yemish iste'moli kamayadi va sut mahsuldorligi, tarkibiy qismlarining sifati pasayadi.
- Sog'in sigirlarda birinchi oshqozoni, deb ataluvchi ozuqa parchalanadigan qopcha hisobiga, tana harorati insonlarnikiga qaraganda yuqori yuradi, tana harorati mo'tadil vaqtda 38,5 °C bo'ladi.
- Global isish ta'sirida, Yaponiya yoz fasli kunlari (maksimal harorat 30 °C yoki undan yuqori kunlar) va issiq kunlari (maksimal harorat 35 °C yoki undan yuqori kunlar) mavjud.
- Yozning jazirama kunlaridan, sog'in sigirlar nobud bo'lishi mumkin. 2010 yilning yoz kunlarida, jazirama tufayli nobud bo'lgan yoki tashlab ketilgan sigirlar soni 959 boshni tashkil etgan.

- Quyidagi jadvalda 18 °C, 26 °C va 30 °C muhitda sog'in sigirlarning holati ko'rsatilgan. Ozuqa yemishining iste'moli, vazn va sut berishi kamayadi.
- Atrof-muhitda harorat ko'tarilganda, tana harorati va nafas olish tezligi ham oshadi.

Atrof-muhit haroratining ko'tarilishi va sog'in sigirlarning holati (misol)

		18°C	26°C	30°C
Omuxta iste'moli	kg / kun	12.0	10.3	8.4
Pichan iste'moli	kg / kun	6.1	4.5	3.7
Vazni (sinov oxirida)	kg	561	543	528
Tana harorati	°C	38.3	39.2	40.2
Nafas olish tezligi	marotaba / daqiqa	33.7	58.3	73.1
Sut mahsuldorligi	kg	27.5	23.3	19.3

Sog'in sigirlar uchun harorat issiqligi muammosini, qanday bartaraf etish yo'llari, sut xo'jaligi chorvachiligidagi asosiy muammolardan biridir. Shu sababli, molxona tuzilishi, ventilyatorlar va suv yordamida sovutish moslamalarini qo'llash va boshqarish, og'ilxona atrofiga daraxt ekish va oziqlantirishni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Sog'in sigirlar, yirik suv ichuvchi, chorva mollari bo'lib, suv sifatiga sezgir bo'lganligi sababli, ayniqsa yozning issiq oylarida, doimo toza va sovuq suvga talab katta bo'ladi.

9 Go'ngga ishlov berish

- hid bilan bog'liq muammolar bo'lganligi sababli, qonunga ko'ra go'ngga to'g'ri ishlov berish belgilab qo'yilgan.
- Sifatli kompost tayyorlash, uni yaylovlarda qo'llash, tog'li hududlarda dehqonchilik bilan shug'ullanyotgan dehqonlar va sholichilarga, yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir.

Fermerlar tomonidan boqiladigan sog'in sigirlar soni ko'paygani sari, fermer xo'jaliklaridan chiqarib tashlanadigan chorva go'ngi miqdori ham ortib bormoqda. Boshqa tomondan, maysa va yem-xashak ekinlari maydoni, chorva soniga mutanosib ravishda ko'payib boorish holatlari kam bo'lib, yaylovlarga qaytariladigan go'ng miqdori va go'ng miqdorining ko'pligi, ko'pincha muammolarni tug'diradi.



Kompost tayyorlash inshooti

1 Go'shtli qoramol

Ko'p miqdorda boqiladigan Yapon qoramollarining zotlari – bu Yapon qoramoli (Vagyu), sutdan chiqmagan buzoq (Golshteyn) va yapon qoramoli va sersut qoramoli duragaylari (F1) kabi zotlaridir. Har birining boqilish davri, farqlanadi.

2 Go'sht uchun boqiladigan chorva shakli

Yaponiyada go'sht uchun boqiladigan chorva boshqarishini, quyidagi uch turga ajratish mumkin.

(1) Naslchilikni boshqarish

Naslchilik uchun yapon urg'ochi sigirlar, buzoqlar boqiladi va 10 oylik bo'lgan sigirni, chorva bozoriga jo'natiladi.

Fermerlar yiliga, bir marotaba buzoq yetishtirishni maqsad qiladilar. Naslchilik uchun sigirlarning o'rtacha soni taxminan 7 ta, ba'zi fermerlarda esa 10 dan ortiq bo'ladi..



yaylov



sigir

(2) Bo'rdoqiga boqishni boshqarish

Semiruvchi molar zotlari, Yapon sigiri, Vagyu (taxminan 10 oylikdan), sutdan chiqmagan buzoq (buzoq) lar va gibrid (buzoq yoki taxminan 8 oylikdan so'ng) kabi zotlari bo'rdoqiga boqilib, Yapon sigiri, Vagyu uchun, taxminan 30 oylik, sutdan chiqmagan buzoqlar uchun 19 ~ 20 oylik va duragaylar uchun 25 oylikgacha bo'lganlari jo'natiladi.


(3) Integratsiyalashgan boshqaruv

Naslchilik va chorva mollarini boqish ishlarini, yagona boshqaruv organida, bir vaqtning o'zida davom ettirish-integratsiyalashgan boshqaruv, deb ataladi, lekin Vagyu mol go'shti uchun bunday boshqaruv turlari hali ko'p mavjud emas.

(4) Boshqalar

Sut xo'jaligi fermerlari, yapon sigirlarining urug'ini sun'iy yo'l bilan urg'ochi sog'in sigirlarga urug'lantirib, duragay buzoqlarni tug'diradilar va bo'rdoqiga boqiladigan fermerlarga jo'natadilar. Duragay buzoqlarning tug'ilgandagi vazni, taxminan 40 kg bo'ladi, bu sog'in sigirlar buzoqlariga qaraganda, kichikroq (taxminan 45 kg) bo'lib, birinchi marotaba tug'ayotgan sigirlarda, tug'ruq jarayonidagi qiyinchiliklarni oldini olish afzalligiga ega..

■ Go'shtli qoramollar (buzoqlarni yetishtirish uchun g'unajinlar bo'lsa)



■ Go'shtli qoramollar (qoramollarni boqish uchun bo'lsa)



3 Yemish va yemish berish shakllari

(1) Buzoq, nasldor sigirlar

Barcha duragay, Vagyu va axtalangan go'shtli buzoqlar yemishi, o'sib borishiga qarab, ona sutidan → sut o'rnini bosuvchiga → sun'iy sutga → pichan va aralash ozuqaga o'zgarib boradi..



Buzoq

(2) Bo'rdoqiga boqiladigan sigir

Yapon qoramollarini semirtirib boqishda, asosan, omuxta yem va sholi somoni, axtalangan buzoqlarda esa silos (sholi silosi, maysa silosi, makkajo'xori silosi), pichan, aralash ozuqa beriladi, duragaylarga bo'lsa, silos, pichan, sholi somoni va aralash yemish beriladi. Yem-xashak va konsentratli ozuqa nisbati bo'yicha, bo'rdoqiga boqiladigan sigirlarda, aralash ozuqa nisbati yuqori bo'ladi..



Mol go'shti (go'sht uchun boqiladigan)

4 Oziqlantirishni boshqarishdagi asosiy jihatlar

Go'shtli qoramollarni boqishda, oziqlantirishni boshqarishdagi masalalari quyidagilardan iborat. Bu masalalarni doimo o'ylab, kundalik oziqlantirishni boshqarish muhimdir.

(1) Podada sigirlarning bir xilda vazn orttirishi

To'g'ri oziqlantirish va barqaror ozuqa iste'molini hisobga olib, buqalarning o'zaro kurashishini oldini olish orqali, tanasi katta og'ir va go'shti sifatli mollarni boqish muhimdir. Ayniqsa, Vagyu mol go'shti misolida olinsa, "marmar" mol go'shti ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

(2) Buzoq salomatligini nazorat qilish

Buzoqlar pnevmoniya va diareyaga moyilligi sababli, ularni kuzatish, parvarish qilish va to'g'ri davolash lozim.



Buzoqlar uchun mo'ljallangan isitgich (isitish kiyimi)

(3) Viruslar tarqalishini oldini olish

Viruslarning fermaga tarqalishidan, juda ehtiyot bo'lish lozim.







(4) Go'ngga ishlov berish

Sut xo'jaligining, 1 bob **9** bo'limida berilgan chora- tadbirlarni talab qiladi.

1 Cho'chqa zotlari


Cho'chqalar - odamlar tomonidan, yovvoyi cho'chqalarni qo'lga o'rgatish va go'sht ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish uchun o'zgartirilgan hayvonlardir. Yaponiyada yetishtiriladigan asosiy cho'chqa zotlari – "Landrace", "Large White" va "Duroc" zotlaridir.

Cho'chqa zotlari

Zotlari (qisqartmalari)	Tashqi ko'rinishi	Xususiyat
Landrace (L)	 Oq rangda, tanasi uzun. Yuzi, ozg'in va cho'zinchoq, quloqlari osilgan.	Avlod berishi ko'p. Cho'chqa bolalarining ko'payish darajasi yuqori.
Katta oq cho'chqa (W)	 Oq randa, quloqlari tikka ko'rinishga ega.	Nasldorligi yuqori darajada.
Duroc (D)	 Jigarrangdan qora ranggacha bo'lib, quloqlari pastga osilgan.	Go'sht sifati yaxshi, kasalliklarga chidamli va tez o'sadi.
Berkshir (B)	 Qora cho'chqa bo'lib, oyoq-qo'llarining uchida, yuzida, dumning uchida oq rangda. U "Rokuhaku", deb ham ataladi.	Avlodlarining soni ham, rivojlanishi ham yuqoridagi navlardan past, ammo go'sht sifati juda yaxshi.
Hempshir (H)	 Qora rangdagi tanasida, oq rangdagi tasmaimon dog'i mavjud.	Uchlamchi urchitilgan Duroc zotining o'rniga, erkagi sifatida qo'llaniladi.
O'rta Yorkshir (Y)	 Uning yuzining dahani qaytgan, quloqlari tik holatda.	O'sishi sekindir. Go'sht sifati yaxshi.

Bu uch navni chatishtirib (urচিতib) duragay hosil qilinsa, naslchilik darajasi yuqori, o'sishi tez, go'sht sifati ham yaxshilanadi. Bu "uchlamchi urচিতish", deb ataladi va butun Yaponiyada keng qo'llaniladi. Avval, Landrace (L) va Katta oq cho'chqa (W) urচিতiladi. Ulardan tug'ilgan urg'ochilar boqilib, ko'paytirish uchun foydalaniladi. Urg'ochilarni Duroc (D) erkagi bilan chatishtirib, tug'ilgan cho'chqa bolalarini (LWD) bo'rdoqi cho'chqa sifatida boqish odatiy holdir. Qisqacha qilib aytganda, Yaponiyadagi ko'plab cho'chqalar


duragaylardir. Navlarni shu tarzda chatishtirish orqali naslning qobiliyati (mahsuldorligi) ortadi, bu esa geterozis, deb ataladi. Berkshire (qora cho'chqa), Hampshire va O'rta Yorkshire boshqa zotlar ham mavjud.



Odatiy uchlamchi urchitilgan kombinatsiyasi

Bundan tashqari, gibrigid cho'chqalar, deb ataladigan bir nechta zotlarni chatishtirish orqali ishlab chiqarilgan urg'ochi yoki erkak nasldor cho'chqalar va bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalar ham mavjud. Bunday mehnatni talab etuvchi uchlamchi urchitishdan maqsad, kamchiliklarini bartaraf etish va mukammal va bir xildagi, ko'p sonli nasldor cho'chqalar bilan ta'minlashdan iboratdir.

Cho'chqa tanasi qismlarining nomlanishi



1. Burun 2. Quloqlar 3. Yonoqlar 4. Bo'yin 5. Yelka 6. Bel 7. Bo'ksa
8. Biqin 9. Qo'litiq osti 10. Pastki qorinning ikkinchi yarmi 11. Orqa
12. Son 13. Qorinning pastki qismi 14. Old oyoqlar 15. Orqa oyoqlar
16. Quyuq 17. Son burchagi 18. Orqa tizza 19. To'pig'i
20. Ulangan mushaklar 21. Ko'krak qafasi (shu jumladan qorin)
22. Ko'krak qafasining oldi 23. Ortiqcha barmoq

2 Cho'chqalarning hayot tsikli

Cho'chqalardan foydalanishga ko'ra, bo'rdoqi va nasldor cho'chqalarga bo'linadi. Bo'rdoqi cho'chqalar - biz go'sht sifatida iste'mol qilinadigan cho'chqalar hisoblanadi. Go'shtli cho'chqa, deb ham ataladi. Bo'rdoqi cho'chqaning asosiy ota-onasi –bu ona cho'chqa, hisoblanadi. Ona cho'chqa sifatida yetishtiriladigan cho'chqalar - nasldor cho'chqalar, deyiladi. “Urug'chi cho'chqa”, deb ham ataladi. Ona cho'chqalar bir xil tsiklni qaytaradilar, juftlashish, homiladorlik, bolalash va laktatsiyani takrorlaydi.

Cho'chqalar hamma narsani yeydigan hayvonlar hisoblanib, turli xil yemlarni iste'mol qiladilar. Cho'chqaning ovqat hazm qilish tizimining asosiy tuzilishi, odamlarniki bilan bir xil bo'lib, ular ham hamma narsalar bilan oziqlanadi. Ozuqa avval oshqozonda hazm qilinadi, so'ngra ingichka ichakda hazm qilinadi va so'riladi. Shundan so'ng, hazm bo'lmaydigan moddalarning bir qismi fermentlanadi va yo'g'on ichakda so'riladi.

(1) Bo'rdoqi cho'chqalar (go'shtli cho'chqa)

Bo'rdoqi cho'chqalar tug'ilgandan keyin ma'lum vaqt davomida, ona cho'chqa, urg'ochi cho'chqalar tomonidan boqiladi. Tug'ilgandan taxminan 6 oy o'tgach, (taxminan 180 kundan keyin) uning vazni taxminan 115 kg ni tashkil qiladi va go'sht uchun so'yiladi. Vazni taxminan 30 kg vazndan jo'natishgacha bo'lgan davr semirish (bo'rdoqi) davri, deb ataladi.


(2) Ona cho'chqa (urg'ochi cho'chqa, hamda “Hahabuta”, deb ataladi)

Urg'ochi cho'chqalar tug'ilganidan sakkiz oy o'tgach, vazni taxminan 120 kg ga ega

bo'lib, birinchi urchitish amalga oshiradilar. Homiladorlik muddati 114 kunni tashkil qiladi. Avlodlarning soni 10 ~15 tagacha bo'lib, tug'ruqdan so'ng 3~ 4 haftagacha bo'lgan emizish davridan keyin yana urchitish amalga oshiriladi. Sog'lom, nazoratda bo'lgan ona cho'chqa homilador bo'lib, 2 yil ichida 4-5 marta tug'ishi mumkin. Ona cho'chqalari, bu tsiklni takrorlaydi, odatda 6~ 10-gacha cho'chqa tug'adi. Cho'chqalarning hayz ko'rish davri 21 kundir.

(3) Urug'chi cho'chqalari (shuningdek, nasldor cho'chqalar, naslchilik cho'chqalari va "Nebuta", deb ham ataladi)

Urug'chi cho'chqalar, jinsiy yetuklikka taxminan 7 oy ichida erishadilar. Urchitishning ikki turi mavjud: tabiiy urchitish (asosiy juftlash) va sun'iy urug'lantirish, (AI) va hozirgi kunlarda sun'iy urug'lantirish kuchaymoqda.



Nasldor cho'chqa (ona cho'chqasi: urug'chilik cho'chqasi) / bo'rdoqi cho'chqasining hayot tsikli

3 Cho'chqachilikni boshqarish

Cho'chqa xo'jaligini boshqarishning uchta turi mavjud: "integratsiyalashgan boshqaruv", "naslchilikni boshqarish" va "bo'rdoqiga boqishni boshqarish"lardan iborat.

Naslchilikni boshqarish xo'jaligida, ona cho'chqalar va urug'chi cho'chqalar ko'paytiriladi va cho'chqa bolalari bo'rdoqiga boqish uchun jo'natiladigan shakldir.

Bo'rdoqiga boqishni boshqarish xo'jaligida, naslchilikni boshqarish xo'jaligidan sotib olinib, bo'rdoqiga boqish va jo'natish shaklidir.

Integratsiyalashgan xo'jalik- bu xo'jalik yuritish shakli bo'lib, unda nasldor ona cho'chqalari, urug'chi cho'chqalar va bo'rdoqi cho'chqalar ham ko'paytirilib, boqish uchun ko'paytirish, izchil amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda, aksariyat boshqaruv bu integratsiyalashgan boshqaruvdir. Buning asosiy sababi, kasalliklarni tashqaridan kirib kelishining oldini olish va boshqarish ko'lamini kengaytirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda, naslchilikni boshqarish xo'jaligi, asosan, ona cho'chqalari va urug'chilik cho'chqalarini ishlab chiqarish va yaxshilash, ularni integratsiyalashgan boshqaruv xo'jaligiga sotish, shaklida amalga oshiriladi.

Boshqaruv xo'jaligining ko'lami, xodimlar soni 10 kishidan 100 kishigacha yoki undan ko'proq bo'lgan, keng ko'lamli xo'jaliklardan tortib, kichik oilalar tomonidan boshqariladigan kichik shakldagi boshqaruv xo'jaliklarigacha turli xildir. Keng ko'lamli boshqaruv xo'jaliklari, ba'zan korporativ cho'chqachilik, deb ham ataladi.

Cho'chqachilik fermalarida ko'paytirishdan tashqari, go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish, go'sht ulgurji va go'sht chakana savdosi, yagona uyushma tomonidan izchil amalga oshirilishi mumkin va bu integratsiya, deb ataladi.

Sanitariya-gigiyenik nazorat nuqtai nazaridan, fermer xo'jaliklarining tasnifi sifatida, oddiy fermer xo'jaliklaridan tashqari sanitariya-gigiyenik nazorat kuchliroq bo'lgan " SPF (patogenlari mavjud bo'lmagan) fermasi" mavjuddir. SPF ga qaraganda, oddiy fermalar "an'anaviy fermalar", deb ataladi.

4 Ozuqa va uni ishlab chiqarish, sotib olish, ozuqa shakli

Cho'chqalar uchun mo'ljallangan ozuqa moddalarining aksariyati, chet eldan keltiriladi. Portuga keltiriladigan, makkajo'xori kabi masalliq, ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun ozuqa zavodida mayda qilib maydalanib, cho'chqalarning o'sish bosqichiga mos keladigan ozuqaviy muvozanatni hisobga olgan holda, aralashtiriladi va aralash ozuqa sifatida sotiladi. Makkajo'xori va soya (yog'sizlangan soya) ko'pincha masalliq sifatida ishlatiladi.

Mayda shaklda maydalangan talqon, preslangan granulalar va maydalangan granulalar kiradi. Suyuq holda ozuqa sifatida beriladigan, suyuq ozuqa ham qo'llaniladi.

Oziqlantirishning ikki turi mavjud: "uzluksiz oziqlantirish" va "cheklangan oziqlantirish"dir.

Uzluksiz oziqlantirish, shuningdek, erkin oziqlantirish, deb ham ataladi va cho'chqalar ohirida doimo ozuqa mavjud bo'lib, cho'chqalar har qanday vaqtda ovqatlanishlari mumkin bo'ladi.

Cheklangan oziqlantirish - belgilangan miqdorda beriladigan, oziqlantirish usuli.

Bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalar, ko'pincha uzluksiz, nasldor cho'chqalar esa ko'pincha, cheklangan oziqlantirish usuli bilan boqiladi.



talqon



granula



suyuq ozuqa

Oziqlantirish shakllari

5 Butun tana go'shti va go'sht qismlari


Jo'natilgan bo'rdoqi cho'chqalar (go'shtli cho'chqalar) so'yilib, "butun tana go'shti" ko'rinishida sotiladi.

Butun tana go'shti - bosh, old va orqa oyoqlar va ichki organlari butun tanadan olib tashlangan holatidir. 115 kg og'irlikdagi cho'chqadan, taxminan 75 kg gacha tana go'shti olinishi mumkin bo'lgan, butun tana go'shtlari mavjud. Tana go'shtining mahsuldorligi, taxminan 65% ni tashkil qiladi. Butun tana go'shtini chap va o'ngga bo'lingan holatiga, yarim dumaloq tana go'shti, deb ataladi. Tana go'shtlari, cho'chqa go'shti savdosi standartlari asosida tasniflanadi va oliydan tortib, yaxshigacha, o'rta, o'rtacha va boshqalarga bo'linib, baholanadi. Birinchi navbatda, tana go'shti (yarim dumaloq) vazni va orqa yog'ning qalinligi, so'ngra tashqi ko'rinishi va go'sht sifatiga ko'ra baholanadi.

Tana go'shti qo'shimcha ravishda qisman go'shtlarga bo'linadi. Shundan so'ng, qisman go'sht qo'shimcha ravishda to'g'ralgan va go'sht sifatida sotiladi yoki jambon, kolbasa va boshqalarga qayta ishlanadi va keyin sotiladi.



Yarim dumaloq tana go'shti



Yaponiyada cho'chqa go'shtining bo'lingan tana go'sht qismlari

Go'sht va yog' ranglarining uchun me'zonlar mavjud bo'lib, go'sht rangi juda to'q yoki juda och (yengil) rangda bo'lsa to'g'ri kelmaydi, lekin go'shtning o'rtasida bir oz ochroq (yengil) tana ranglari bo'lsa, mukammal, deb ataladi. Baholash, cho'chqa go'shti rangi me'zoniga asoslanadi. Oq yog' ma'quldir, aksincha sariq yog' to'g'ri kelmaydi. Yog' yumshoq bo'lsa, u yumshoq yog'li cho'chqa deb ataladi va baholanishi past bo'ladi.

6 Oziqlantirishni boshqarishdagi asosiy jihatlar


(1) Cho'chqa bolalarini nazorat qilish

Cho'chqa bolalarining vazni taxminan 1,4 kg ni tashkil qiladi. Yangi tug'ilgan

cho'chqa bolalarining teri osti yog' qavati yupqa va tana termoregulyatsiya funksiyasi rivojlanmagan bo'ladi. Tasodifiy o'lim va o'sishdan to'xtab qolish holatlarini oldini olish uchun ko'paytirish muhitida haroratni to'g'ri nazorat qilish lozim. Xususan, tug'ilgandan keyingi birinchi hafta davomida, 30 °C yoki undan yuqori haroratni saqlab qolish maqsadga muvofiqdir.



Cho'chqa bolalarini isitish




Har bir yoshdagi cho'chqa bolalari uchun muqobil harorat oralig'ini baholash

(2) Tana vaznini oshishi natijalari

Cho'chqalar o'sgan sari, ozuqa iste'moli ham ortadi. Kuniga tana vaznini ortish miqdori "kunlik kilogramm ortishi (DG, kunlik o'sish)", deb ataladi. Sutdan ajratilgach, tana vazni ozuqani iste'mol qilishiga qarab ko'payib boraveradi va kunlik tana vazning ortishi o'rtacha 30kg ~ 50kg lar uchun 0.78Kg ni, 50kg ~ 115Kg lilarga esa 0.85kg ni tashkil qiladi.

1 kg tana vazni ko'payishi uchun zarur bo'lgan ozuqa miqdori "talab etiladigan ozuqa

nisbati", deb ataladi. Odatda 3,2 ~3,6 gacha yuklamada bo'ladi. Agar undan ko'p bo'lsa, ozuqa tarkibini ko'rib chiqish lozim.



Ko'rsatkich	sharoit	Tana shakli
1	Juda ozg'in	Son va umurtqa pog'onasini ko'z bilan ilg'ab olish mumkin
2	Ozg'in	Kaf bilan bosib, son va umurtqa pog'onasini osongina his qilish mumkin.
3	Mukammal	Qo'lning kafti bilan qattiq bosib, son va umurtqa pog'onasini his qilish mumkin.
4	Semiz	Son va umurtqa pog'onasi his qilinmaydi
5	Haddan tashqari semiz	Son va umurtqa pog'onasi qalin va yog' bilan qoplangan

Ona cho'chqa tanasi holatining ko'rsatkichi

(3) Yuqumli kasalliklar

Cho'chqalarning ko'plab yuqumli kasalliklari mavjud bo'lib, rasmiy ravishda yuqumli kasalliklar sifatida ko'rsatilgan, oyoq va og'iz kasalligi, cho'chqa o'lati yoki epidemik ensefalit kabi kasalliklari paydo bo'lsa, bu haqida zudlik bilan chorvachilik gigiyena xizmati markaziga xabar berilishi va qonun hujjatlariga muvofiq davolanishi shart.

Odamlarni, ozuqa va materiallarni ko'chirishda, qat'iy epidemiyaning oldini olish tizimiga rioya qilish lozim.

Cho'chqa fermalarida, turli xil cho'chqa kasalliklari mavjud bo'lib, emlash samarali bo'lganlari, emlanadi. Hozirgi vaqtda, o'tkir, simptomli, qisqa vaqt ichida o'limga olib keladiganlari kam bo'lib, surunkali kasalliklar ko'pdir. Odatiy kasallikni qo'zg'atuvchilar, transmissiv gastroenterit (TGE), virusli kasalliklar sifatida, naslchilik, nafas olish buzilishi sindromi (PRRS), bakterial kasalligi sifatida, mikoplazma, ichak tayoqchasi va Lenza tayoqchasi hamda parazit sifatida yumaloq qurtlardir.

(4) Cho'chqaxonadagi hid va go'ngga ishlov berish

Cho'chqa ko'paytirishda, kuniga 2-3 kg najas va 5,5 kg peshob, bo'rdoqi cho'chqalar esa 1,9 kg najas va 3,5 kg peshob chiqaradi. Najasdan kelib chiqqan bu yomon hid, chorvachilik xo'jaligidan kelib chiqqan ifloslanish sifatida eng ko'p shikoyatlarga ega va

u cho'chqachilik sanoati haqidagi taassurotini yanada yomonlashtiradi va xo'jalikning ish faolitini davom ettirishiga ta'sir qiladi. Faqatgina bular emas, balki cho'chqalar va odamlarning sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi va chivin kabi zararkunandalarning jalb qilinishi va ko'payishi, kabi atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi, shuning uchun epidemiyalogik muhitni nazorat qilish lozim.

Cho'chqaxonadagi hidlar asosan najas va peshobdan hosil bo'lgan ammiak va oltingugurt birikmalari hamda butirik kislota, propion kislotalari, sirka kislotalari kabi uchuvchi yog'li kislotalardir. Bu cho'chqalar uchun ham, ularni boshqaradigan odamlar uchun ham zararli, shu sababli ularni kamaytirish lozim. Buning uchun, najas va peshobdagi fermentlar orasidagi reaksiyani bostirish uchun, ular iloji boricha aralashib ketmasligi lozim hamda najas va peshobni ajratib olish lozim.

Go'ngga to'g'ri ishlov berish muhim bo'lib, odatda, najasni kompostlash inshootida, peshobga esa tozalash inshootida ishlov beriladi. Yana bir usul mavjud bo'lib, najas va peshob aralashmasiga ishlov berish bo'lib, bu go'ng aralashmasi- atala, deb ataladi.

Kompostning ko'p qismi mikrobial organizmlardan iborat bo'lib, najasdagi aerob mikroorganizmlar, asosan, chirigan organik moddalarni parchalaydi va ko'paytiradi. Kompost tayyorlashda, kislorod talab qiladigan aerob mikroorganizmlarga mos muhit yaratish muhimdir.

(5) Issiq va sovuq

Cho'chqalarda ter bezlari degeneratsiyaga uhragan bo'lib, tana issiqligini teridan chiqarib yuborishiga qiynaladi. Ayniqsa, yoz faslida, Yaponiyada yuqori harorat va yuqori namlik tufayli issiqlik atrofga tarqalib ketmaydi. Shuning uchun, yozda cho'chqaxonalardan namlikni ventilyatorlar yordamida bartaraf etish lozim.

Yoz faslining jaziramasidan kelib chiqadigan yuqori haroratli muhit, cho'chqalarni ko'paytirishga, ayniqsa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Erkak cho'chqalarda, spermatozoidlar sonining kamayishi, sperma hayotiylikligining pasayishi, juftlashishga bo'lgan hoxishning pasayishi, urg'ochilarning esa hayz davrining kechikishi, o'lik cho'chqa bolalarining tug'ilishi, tug'ilish vaznining pasayishi va ishtahaning pasayishi tufayli, sut mahsuldorligining kamayishi kabi umumiy reproduktiv qobiliyatining pasayishi kabi salbiy oqibatlar kelib chiqadi..

Bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarda ham ishtaha kamayadi, bu esa tananing vazn olishiga ta'sir qiladi. Agarda, harorat keskin ko'tarilsa, issiqlik urishidan ham nobud bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, qish faslida harorat va namlik past bo'lishi, yozdan farqli o'laroq, tanadan issiqlik chiqishi haddan tashqari ko'tariladi. Shuning uchun, qishda, cho'chqaxonalarda haroratini nazorat qilish, ayniqsa, sovuqqa chidamsiz bo'lgan cho'chqa bolalari haroratini nazorat qilishga, e'tibor berish lozim.

① Tuxum qiladigan tovuq

1 Tovuqlar zoti

Yaponiyada yetishtiriladigan, tuxum zotlarining eng keng tarqalgan vakili (tovuq zoti) bir tojli oq “Leghorn” zotidir (yetishtirilgan mamlakati, Italiya). Oq tuxum qo'yuvchi tovuq sifatida bu oq “Leghorn” yoki uning gibridi keng boqiladi. Bundan tashqari, jigarrang tuxum qo'yuvchi tovuqlar sifatida “Rod-Aylend” qizil zotlari (yetishtirilgan mamlakati AQSh) yoki ularning duragaylari, shuningdek, oq va jigarrang rangining o'rtacha rangli tuxum qo'yuvchi zotlari (tovuq zotlari) ham ko'paytiriladi.



Bir tojli, oq Leghorn zotlari



Rod-Aylend qizil zotlari

2 Tuxum qo'yuvchi tovuqlarni ko'paytirish va boshqariuv shakli


2018 yil, 1 fevral holatiga ko'ra 139,03 million dona urg'ochi jo'jalarning yetishtirilib, shu 20 yil oralig'ida kata o'zgarishlar yuz bermadi. Boqiladigan tovuqlar soni 2200 ta bo'lib, ayniqsa mayda tovuqlar yil sayin kamayib bormoqda.

Tovuqlarning 75 foizi fermer xo'jaligiga, 25 foizi esa kompaniyalar orqali boshqariladi. Garchi kompaniyalar tomonidan boshqariladigan, parrandachilik xo'jaliklari soni kam bo'lsa-da, ular umumiy parrandalar sonining, qariyb 70 foizini boshqaradi. Ko'pgina kompaniyalar shaxsiy yoki oilaviy biznes hisoblanadi.

Boshqaruv shaklida, jo'jalarni boqishni, jo'jalarni yetishtiruvchi tadbirkorlarga topshirilib, o'rta yoki katta jo'jalarni yetishtirishni tadbiriq qilib, voyaga yetgan tovuqlarni boshqarishga asosiy e'tibor qaratilib, boshqaruv amalga oshiriladi va jo'jalardan tortib voyaga yetgan tovuqlargacha bo'lgan ketma-ketlikda, shaxsiy xo'jaliklarda nazorat qilinib, boshqarilib boriladi.

3 Tovuqlarning hayot tsikli

Tovuqlar na'munadagidek yetishtirilganda, 5 yildan 15 yilgacha umr ko'radilar. Iqtisodiy jihatdan, tuxum qo'yuvchi tovuq misolida tovuqning hayot tsikli chizmada ko'rsatilgan. Tovuqning jo'ja ochadigan tuxumlari (urug'langan tuxum) tegishli harorat va namlik sharoitida isitilsa, 21- kuni tuxumdan jo'jalar ochib chiqadi. Bu jo'jalarning urg'ochisi, taxminan 150 kun ichida yetilgan tovuqqa (voyaga yetgan tovuq) aylanadi va tuxum qo'yishni boshlaydi (tuxum qo'yishni boshlaydi). Tug'ilgandan so'ng, taxminan 210 kun o'tgach, yanada ko'proq tuxum qo'yishni boshlaydi (urug'lanish cho'qqisi). Shundan so'ng, taxminan bir yildan bir yarim yilgacha tuxum qo'yadi, lekin u asta-sekin tuxum qo'yishni to'xtatganligi sababli, taxminan ikki yil ichida qayta ishlov beriladigan go'sht (qari tovuq) sifatida jo'natiladi.



Tovuqlarning hayot tsikli

4 Ozuqa va uni ishlab chiqarish, sotib olish, ozuqa shakli

Tovuqlarni yetishtirish uchun ko'plab parrandachilik fermalari, o'sish jarayoni va qo'llanilish usullarini uyushtirgan holda, bir nechta masalliqni aralashtirilib, sotiladigan aralash ozuqalardan foydalanadilar.

Masalliq sifatida, makkajo'xori, supurgi donlarining aralashmasi va soya kabi masalliqning asosiy qismi xorijdan import qilinadi.

Turlicha ozuqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan, omuxta va aralash mahsulotlar sotilsa-da, Yaponiyada ishlab chiqarilgan parrandachilik uchun omuxta yemi, hozirda jami ozuqa ishlab chiqarishning 42 % ni tashkil qiladi, va yanada bu ko'rsatkich o'sib bormoqda.

Parrandalar uchun mo'ljallangan, omuxta yemining 58,2 foizi tuxum qo'yuvchi tovuqlar va kattalar tovuqlar yemlarini tashkil qilsa, 7,8 foizini esa jo'ja yemlaridir. Parrandachilik fermalarida, ozuqaning 66 foizi tovuqlar yemiga to'g'ri keladi.

Ozuqa yetishtiruvchi korxonalariga tayanmagan holda, shaxsiy parrandachilik fermasi uchun omuxta yemini ishlab chiqaruvchi ozuqa turiga- mustaqil aralash ozuqa, deb ataladi.

Katta tovuqlar uchun omuxta yem tarkibida energiya manbai sifatida 60 foizini donli makkajo'xori va supurgi donlari, oqsil manbai sifatida 15 foizini o'simlik yog'i qoldig'i soya uni, 10 foizini chorva yemining baliq uni, 5 foizini makkajo'xori kleykovina ozuqasi va 10 % noorganik moddalar, vitaminlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Omuxta nisbati, masalliq, ingredientlar va boshqalar tovuqning zoti, yoshi va yetishtirish muhitiga qarab o'zgaradi.

5 Oziqlantirishni boshqarishdagi asosiy jihatlar

(1) Gigiyenaga rioya qilish

To'liq profilaktik gigiyenaga rioya qilish. Dastavval, yetishtirish hududiga patogenlarning kirib kelishining oldini olish va ko'paytirish hududida salbiy muhitni yaxshilash. Uy hayvonlarida yuqumli kasalliklarni nazorat qilish to'g'risidagi qonunining, yetishtirishda gigiyenaga rioya qilish standartlariga muvofiq, patogenlarning kirishini oldini olish uchun gigiyena nazorati hududlari tashkil etilishi lozim.

Parrandaxonalar kattalashib, ko'plab parrandalarni ko'paytirar ekan, tovuq parrandasining tana sog'lig'ini nazorat qilish, parrandaxonalarda atrof-muhitni moslashtirish, defekatsiya va tozalash kabi gigiyena qoidalari yetarli bo'lmaganligi sababli, kasallik va kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan zararni bartaraf etish lozim.

① Parrandachilik va boshqa inshootlarning gigiyenasini boshqarish

To'liq defekatsiya, tozalash, tozalash va dezinfeksiya qilish

② Tovuq salomatligini nazorat qilish

Atrof muhitning o'zgarishi natijasida, kelib chiqadigan nafas olish kasalliklariga e'tibor qaratish lozim.

Tovuqlar uchun o'ta yuqumli kasalliklarga qarshi emlash dasturi tuziladi va emlashga qat'iyon rioya qilib amalga oshiramiz.

(2) Parranda grippei

Chorvachilik epidemiyalari haqidagi so'nggi ma'lumotlarni kuzatib borish, ayniqsa chorvachilik gigiyena markazi tomonidan taqdim etilgan yuqori patogenli parranda grippei haqidagi ma'lumotlarni kuzatib borish va chorvachilik gigiyena markazi ko'rsatmalariga amal qilish muhimdir. Yetishtirish hududlarida, yovvoyi qushlarning kirib kelishini to'liq oldini olish uchun parrandalar xonasida, qush to'ri o'rnatilishi, tovuqlarning sog'lig'ini kuzatish, har qanday anormallik yoki o'ziga xos alomatlar haqida darhol xabar berish lozim. Bundan tashqari, parrandaxona yaqinida, yovvoyi qush o'lik tanasini topsangiz, darhol ma'muriyatga xabar berish muhimdir.

② Go'sht uchun mo'ljallangan tovuqlar

1 Go'sht uchun mo'ljallangan tovuq zoti

Go'sht uchun mo'ljallangan tovuqlar tezroq o'sadi va qisqa vaqt ichida jo'natilishi uchun go'shti yaxshi bo'lgan, yuqori darajada yaxshilangan yosh go'shtli tovuqlar (broylerlar) bo'lib, ular 85 % dan ortig'ini tashkil qiladi. Bu zotlar amaliy tovuqning F1 gibridi bo'lib, oq "Plimut Rok" zotli urg'ochi va oq "Kornish" erkak zotining chatishishidan hosil bo'lgan. Mahalliy tovuqlarning, go'sht uchun mo'ljallangan tovuqlari atigi 1% kam miqdorni tashkil qiladi, ammo go'sht sifatini yaxshilash uchun "Shamo" tovuqi, "Nagoya" zoti va qizil "Rod-Ayland" zoti kabi mahalliy zotlardan foydalangan holda, duragaylar sifatida ishlab chiqarilgan, yuqori sifatli go'sht uchun mo'ljallangan tovuqlardir.



Oq "Kornish" zoti



Oq "Plimut Rok" zoti

2 Go'sht uchun mo'ljallangan, yosh tovuqlarni (broylerlarni) ko'paytirish va boshqarish shakli


2018 yil, 1 fevral holatiga ko'ra, yetishtirish xo'jaliklari soni 2260 donani tashkil qiladi, parrandalarni yetishtirish xo'jaliklari soni 138,77 millionni tashkil etib, shulardan bir dona xo'jalikda yetishtirilayotgan parrandalar soni 61400 dan to'g'ri keladi. Har bir xo'jalikda yetishtiriladigan parrandalar soni yildan-yilga ortib, xo'jalik yuritishni yanada samarali yo'lga qo'yish maqsadida, ko'lami kengayib bormoqda.

Ko'pchilik broylerlarni yetishtirishda, umumiy savdo shirkatlari, qishloq xo'jaligi kooperativlari va jismoniy shaxslar tomonidan boshqarilib, yetishtirishdan tortib, ishlov berish va tarqatishgacha bo'lgan barcha bosqichlar birlashtirilib, shartnoma asosida, fermerlarda yetishtirishni amalga oshirish taklif etiladi. Bundan tashqari, supermarketlar kabi ommaviy chakana savdo do'konlarining tezda rivojlanishi tufayli, distribyutorlar broylerlarni yetishtirib, butun bir jarayonga aylantiradigan usul ham mavjud.

3 Go'sht uchun mo'ljallangan yosh tovuqning (broyler) hayot tsikli

Rasmda, go'sht uchun ishlatiladigan, yosh go'shtli tovuqlarning (broylerlarning) hayot

tsikli ko'rsatilgan. Tuxumdan yorib chiqqandan so'ng, kichkina jo'jalar taxminan 7 hafta davomida boqiladi va taxminan 2,3 kg og'irlikda jo'natiladi. Katta vazndagi jo'jalar, taxminan 8 hafta davomida boqiladi va taxminan 3,0 kg og'irlikda jo'natiladi. Mahalliy tovuqlar uchun 80 kun yoki undan ko'proq vaqt yetishtirish davri talab qilinadi va ularning go'shtiga t'am kirishi va go'shtni iste'mol qila olish uchun 4 oydan 5 oygacha yetishtiriladi va jo'natiladi.



Go'sht uchun mo'ljallangan yosh tovuqning hayot tsikli

4 Ozuqa va uni ishlab chiqarish, sotib olish, ozuqa shakli

Ko'plab broylerlar yetishtirilishiga ko'ra, bir nechta masalliqni aralashtirish yo'li bilan ishlab chiqarilgan, sotuvda mavjud bo'lgan, omuxta ozuqalar yordamida yetishtiriladi. Turli xil aralash mahsulotlar, ozuqa ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotiladi. Ayni vaqtda, Yaponiyada ishlab chiqarilgan broilerning omuxta yemi, jami omuxta yem ishlab chiqarishning 14 foizini va parranda omuxta yemining 34 foizini (umumiy ozuqaning 42 foizini) tashkil etadi.

Broylerlar uchun omuxta ozuqa energiya manbasi sifatida, eng ko'pini donli makkajo'xori va supurgi urugini, o'z ichiga oladi, shuningdek, oqsil manbai sifatida soya uni kabi o'simlik moyi qoldig'i va chorva uchun ozuqa-yemi baliq unlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, guruch kepagi, noorganik moddalar va vitaminlar, makkajo'xori kleykovina yemini ham o'z ichiga oladi. Omuxta nisbati, masalliq, ingredientlar va boshqalar, tovuqning zoti, yoshi va yetishtirish muhitiga qarab o'zgaradi.

5 Oziqlantirishni boshqarishdagi asosiy jihatlar

(1) Gigiyenaga rioya qilish

To'liq profilaktik gigiyenaga rioya qilish. Dastavval, yetishtirish hududiga patogenlarning kirib kelishining oldini olish va ko'paytirish hududida salbiy muhitni yaxshilash. Uy hayvonlarida yuqumli kasalliklarni nazorat qilish to'g'risidagi qonunining, yetishtirishda gigiyenaga rioya qilish standartlariga muvofiq, patogenlarning kirishini oldini olish uchun gigiyena nazorati hududlari tashkil etilishi lozim.

Broyerlarni yetishtirish sezilarli darajada yaxshilandi, ayniqsa, vazn ortishi ko'rsatkichlari ko'paydi. Parrandalarning ko'p miqdorda ko'payishi bu odatiy bo'lib, ko'payish davri qisqa, shuning uchun yetishtirishni boshqarishda tezkor chora-tadbirlarni tadbir qilishda, kechikish alomatlari mavjud. Shuning uchun kundalik oziqlanishni boshqarishda, zarar keltiruvchi yoki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish muhimdir.

① Inshoot gigiyenasini boshqarish

Parrandaxonalar, kasallikni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar, antisanitariya hasharotlari va antibakterial moddalardan tozalanadi va dezinfektsiya qilinadi.

② Tovuq salomatligini nazorat qilish

Tez o'sadigan broyerlar yaxshi ventilyatsiya nazorati ostida bo'lib, nafas olish yo'li kasalliklaridan ogoh bo'ladilar.

Parrandalar uchun o'ta yuqumli kasalliklarga qarshi emlash dasturini ishlab chiqish va emlashga rioya qilish muhimdir.

(2) Qush grippiga qarshi chora-tadbirlar

Tovuqlar uchun bir xil choralar-tadbirlar (21- bet) muhimdir.

① Yengil ot

1 Yengil ot (zotli)

- Yengil otlarning besh turi mavjud: toza zotli, Arab otlari, Anglo-Arab otlari va Arabiston zotli otlari bo'lib, Yaponiyada boqiladigan engil otlarning aksariyati, zotli otlardir.
- Har yili 7000 dona (2018 yilda) toza zotlarning ishlab chiqarilishining asosiy hududlari Hokkaydo, Tohoku va Kyushu hisoblanadi. Ular orasida, yetishtirishning 98 % dan ortig'i, Hokkaydo hududi hissasiga to'g'ri keladi.
- Toza zotli otlar, poygaga tayyorlangandan so'ng, asosan poyga otlari sifatida ishlatiladi.
- Poygalarda ishlatiladigan zotli otlarning zotlari, tabiiy urchitish natijasida olingan zotlar bilan cheklanadi.

Sun'iy urug'lantirish orqali olingan otlardan, ot poygalarida foydalanish mumkin emas.

- Sof zotli otlar - nasl-nasabini ro'yxatga olish orqali, qat'iy nazorat qilinadi. Ro'yxatga olingan ayg'ir otlardan (ota) va biyalardan (ona) tug'ilgan otlargina, zotli ot sifatida qayd etilishi mumkin. Shuningdek, nasl-nasabi qayd etilmagan otlar, poyga otlari bo'la olmaydi. Zotdormotlar ro'yxatidan o'tkazilgan otlarga, ro'yxatga olish organi tomonidan guvohnoma beriladi.

2 Hayot tsikli

- Otning yoshi o'ziga xos tarzda, tug'ilgan yili aytilib, ikkinchi va undan keying yillari esa 1 va 2 yosh, deb ataladi.
- Sof zotlarning homiladorlik davri, taxminan 11 oyni tashkil qiladi va ularning aksariyati, Yaponiyada fevral va may oylari orasida tug'iladi.
- Tug'ilganidan to yoz fasligacha otlar, ona otlari bilan birgalikda boqiladi, lekin kuzda, (tug'ilgandan keyin taxminan 6 oy o'tgach) ular sutdan ajratiladi, keyin esa faqat toychoqlar bilan birgalikda boqiladi.
- Birinchi yoshining kuzidan boshlab, egar va jabduqlar kiyishga o'rgatish, odamlarni mindirishga o'rgatish (egarlash) boshlanadi.
- Minishga moslashgandan so'ng, jismoniy kuchini oshirish uchun mindirib, yugurish mashqlari (o'rgatish) o'tkaziladi.
- 2 yoshga to'lgan, o'rgatilgan otlar, poyga fermasi yoki mashq-o'quv markaziga ko'chib o'tadi, poyga otlari sifatida ro'yxatga olinadi va poygaga chiqish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkaziladi.
- Poygadan iste'foga chiqqan otlardan, yaxshi poyga ko'rsatkichlariga ega otlar va zotli otlar, nasldor otlar sifatida yetishtirish fermasiga qaytadi.



① Urchitish (mart-may oylari)
(Homiladorlik davri: 11 oy)



② Tug'ilish
(keyingi yilning fevral-may oylari)



③ Emizish (~ 6 oylik)



④ Kuz fasli
Sutdan ajratish (taxminan 5-6 oylik)



⑤ Qish-yoz fasli Toychoqlarni birgalikda ushlab (erkak va urg'ochilari alohida)
(6 oydan 1 yoshgacha, yoz fasli)



⑥ 1 yoshli, kuz fasli
Egarlangan



⑦ 1 yoshli qish ~ 2 yosh
Mashq qilish



⑧ 2 yosh aprel ~
Ilk bor poygaga chiqishi



⑨ Iste'foga chiqish
Ba'zilar ko'paytirish uchun ishlatiladi



3 Ferma xo'jaligini boshqarish shakli

Yengil ot ferma xo'jaligida, boshqaruvning ikkita asosiy turi mavjud.

- Ishlab chiqarish fermasi

Biyalarni boqib, toychoqlarni yetishtirish, kim oshdi bozorida sotish.

- Iyetishtirish fermasi

Toylarni egarlash va shug'ullantirish.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish va yetishtirish xo'jaliklarini uyushtirgan holda ishlarni olib boruvchi, chorvachilik xo'jaliklari ham mavjud..



Ishlab chiqarish fermasi



Yetishtirish fermasi

② Asalarichilik

1 Asalarilarning turlari va xususiyatlari

(1) Turi

Yaponiyada asalarilarning ikki turi mavjud: g'arbiy asalarilar va yapon asalarilari, lekin uy hayvonlarining ko'pchiligi asalarilar (keyingi o'rinlarda asalarilar deb yuritiladi).

(2) Xususiyatlari

Asalarilar guruhlarda yashaydilar va guruh ichida o'z rollariga ega.

• Ishchi ari (ayol)


Ishchi asalarilar oddiy uyalarda (asalari uylarini tashkil etuvchi olti burchakli kameralar) boqiladi. Lichinkalar davrida birinchi yarmida shohona jele, ikkinchi yarmida polen va asal beriladi va u taxminan 21 kun ichida katta bo'ladi. Umr muddati (omon qolish davri) taxminan bir oy, ammo sovuq qish oylarida u taxminan yarim yil yashashi mumkin. Voyaga yetgandan so'ng dastlab uya tozalanadi, shundan so'ng lichinkalar ko'tariladi va nihoyat uyadan chiqib oziqlanadi (gullardan nektar va gulchang yig'adi) ko'payadi.

• Qirolicha ari (ayol)


Malika ari lichinkalar orasida faqat qirollik suti bilan oziqlanadigan qirollik poydevori deb ataladigan maxsus uyada o'sadi. Qirolicha ari, odatda, 1- guruhdagi uy hayvonlaridan birida, faqat urug'lantirish bilan shug'ullanadi. Malika asalari vazni ishchi aridan kattaroq va umri 2-3 yil.

• Erkak ari


Erkak asalarilar malika asalari juftlash davrida tug'iladi (apreldan iyungacha Yaponiyada eng maqbul vaqt) va o'sha paytda ishchi asalarilar uyada erkak asalarilarga bag'ishlangan uya yaratadilar. Erkak asalarilar uyada ishlamaydi va havoda malika ari bilan juftlashadi.



Ishchi asalarilar uyasi
(olti qirrali kichik yacheykalar)




Ishchi ari hayoti



Ona ari va erkak ari hayoti

2 Asalarilarning bir yillik faoliyati

mavsum	Faoliyat mazmuni
Bahor fasli (qurilish)	Bahordan yozgacha ko'plab gullar gullaydi, asalarilar oziqlanadi va ko'payadi. Guruhlar ma'lum bir kattalikka yetganda, nasldor erkak asalarilarni ishlab chiqarish va qirollik poydevori yasalishi boshlanadi. Qirollik poydevoridan, yangi ona ari tug'ilishidan bir necha kun oldin eski ona ari ishchi asalarilarning taxminan yarmi bilan uyadan chiqib, boshqa joyda yangi uya quradi. Bu arilarni bo'linishi, deb ataladi.
Yoz fasli (yoz fasli davomida)	Gullari ko'p yaylovlardan tashqari, boshqa yerlarda gullar soni kam bo'lib, asalarilar uchun eng qiyin vaqt hisoblanadi. Natijada, asalarilar uyadan qochib, yangi yerlarni qidirib, qaytmasliklari mumkin. Bunday holatga- uyadan qochish, deyiladi.
Kuz fasli	Bu qish faslidan oldin yetarli miqdorda, asal g'amlab olish (uyada asalni saqlash) kerak bo'lgan vaqt hisoblanadi. Insonlar hidini yoqtirmaydigan gullardan ham asal yig'adilar.
Qish fasli (qishlash)	Asalarilar, sovuqqa dosh berish uchun uyalarida, bir-biriga ishqalanib isinadilar. Qish mavsumida, tuxum qo'yish va bola arilarni tarbiyalash to'xtaydi, lekin bahor yaqinlashganda, tuxum qo'yish boshlanadi. Shuningdek, bu davrda asalarilar asal yetishmasligi, oziq-ovqat yetishmasligi tufayli ham ochlikdan nobud bo'lishlari mumkin.



Uyadagi asalarilarning bir yillik faoliyati va soni

Quyidagi topshiriqda, berilgan fikr to'g'ri bo'lsa “o”, noto'g'ri bo'lsa “x” belgisini qo'ying.

<Sigir>

1. Yapon sog'in sigirlarining, o'rtacha yillik sut mahsuldorligi, taxminan 5000 kg ni tashkil qiladi. ()
2. Golshteyn sigirining homiladorlik davri 280 kunni tashkil qiladi. ()
3. Sog'in sigirlarning sut sifati, barcha sigirlar bilan bir xildir. ()
4. Yozning issiq oylarida sigirlarning ozuqalanishi kamayadi, sut berishi ham pasayadi. ()
5. Og'ildagi go'ngni, dalada qoldirilishi ma'qul. ()
6. Yaponiyada boqiladigan barcha go'shtli qoramollar, yapon qora mollaridir. ()
7. Yapon qora mollarini boshqarishda, 10 oylik chorva mollari, bozorda sotib olinadi va 30 oygacha bo'qiladi. ()
8. Bo'rdoqiga boqiluvchi qoramollarda, qattiq turdagi ozuqa miqdori, konsentrlangan (aralash) yemga nisbatan yuqori bo'ladi. ()

<Cho'chqa>

1. Yapon cho'chqasining o'sishi tez bo'lib, 5~6 oy ichida, 100 ~ 110 kg tana vazniga ega bo'ladi. ()
2. Yaponiya ona cho'chqasi, bir vaqtning o'zida 5 tagacha avlod beradi. ()
3. Tuqqan ona cho'chqa, yangi tug'ilgan cho'chqa bolasi bilan 2 oy davomida birgalikda ushlanadi. ()
4. Yaponiya ona cho'chqasi, 2 yil ichida 4-5 marta homilodor bo'lib, tug'ishi mumkin. ()
5. Yaponiyadagi cho'chqa fermalarida kasallik kam bo'lib, emlashni talab qilmaydi. ()

<Parranda>

1. Jo'jalarning rivojlanishi to'rt bosqichga bo'linadi: balog'atga yetmagan (jo'ja), o'rta (jo'ja), yirik (jo'ja) va katta tovuqdir. ()
2. Tuxum qo'yuvchi tovuqlarga, ozuqa sifatida omuxta yemi ishlatiladi. ()
3. Tovuqlar parranda grippi bilan kasallanganda, nobud bo'lmaydi. ()
4. Go'shtli tovuqlar (broylerlar) tuxum qo'yadigan tovuqlarga qaraganda, sekinroq o'sadi. ()
5. 7 haftalik broyler xo'rozlar vazni taxminan 5 kg ega. ()

javob

<Sigir>

1. × (Sabab: Yapon sog'in sigirlari va Golshteyn zotlarining o'rtacha sut mahsuldorligi 8000 kg dan oshadi.)
2. ○
3. × (Sabab: Sigirlarning sut sifati har bir sigir uchun har xil bo'ladi.)
4. ○
5. × (Sabab: to'g'ri kompost qilish, qonun bilan belgilangan.)
6. × (Sabab: Yapon qoramolidan tashqari, uchta turdagi sog'in sigirlar va duragaylar mavjud (F1).)
7. ○
8. × (Sababi: bo'rdoqiga boqish davrida, omuxta yemining nisbati yuqori.)

<Cho'chqa>

1. ○
2. × (Sabab: yapon on cho'chqasining avlodlari soni 10 dan 15 gacha bo'ladi.)
3. × (Sababi: cho'chqa bolasining emish davri 3-4 hafta bo'ladi.)
4. ○
5. × (Sabab: cho'chqachilik fermalarida turli kasalliklar mavjud va tegishli emlashlarni talab qilinadi.)

<Parranda>

1. ○
2. ○
3. × (Sabab: Agar yuqori patogen virus bilan kasallangan bo'lsa, u bir hafta ichida nobud bo'ladi)
4. × (Sabab: Broylerlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular tovuqlarga qaraganda tezroq o'sadi.)
5. × (Sabab: Xo'roz broylerlar 7 haftaligida, taxminan 3,3 kg bo'ladi.)



Chorvachilik va yem-ozuqa haqida asosiy bilimlar



1 Sog'in sigirlarning tabiati

Sog'in sigirlar hushyor hayvonlar bo'lib, tarang asabga ega, shuning uchun odamlar ularga yumshoq munosabatda bo'lishlari lozim.

Sog'in sigirlar ba'zan qattiq turdai yemlardan ko'ra, konsentrlangan yemlarni afzal ko'radilar, bu "tanlab oziqlanish", deb ataladi.

Yozning issiq oylarida, sigirlar tana haroratini ko'tarilishini oldini olish maqsadida, nafas olishi tezlashadi va tanadan suvni ko'p miqdorda bug'lab chiqaradilar.

Sog'in sigirlarning tana harorati, odatda anus(orqa kanal)ga termometrni kiritish orqali o'lchanadi.

Sog'in sigirlarning sut mahsuldorligi tug'ruqdan so'ng keskin o'sadi, lekin 5-7 hafta ichida sutkalik sut mahsuldorligi maksimal darajaga yetadi, sutkalik sut mahsuldorligi taxminan 50 kg ni tashkil qiladigan sigirlar ham ko'pdir.

Tug'ruqdan taxminan 60 kun oldin sog'ish ishlari tugaydi (to'xtatiladi) va sutdan qolish, davr boshlanadi.

2 Og'il tuzilishi

Sog'in sigirlarni saqlashning ikki yo'li mavjud: o'tloqda "o'tlatish" va og'ilda "soyada saqlash" bo'lib, ammo Yaponiyada ko'plab sog'in sigirlar soyada, og'ilda saqlanadi.

Og'ilda saqlashning uchta usuli bor: "Bog'lab boqish", va "Erkin molxona"(Free burn), "Erkin yotoqqa ega molxona"(Free Stall).

Bog'lab boqish - bu sog'in sigirlarni ustunlar, arqonlar, zanjirlar va boshqa narsalar bilan bog'lab, mahkamlash usulidir.

Suv idishlari sifatida, ko'pincha suv dispenserlari qo'llaniladi. Sog'ish ishlari, sigirlar bog'langan joyda amalga oshiriladi va sut sigirlar ustidan o'tgan, sut naychasi orqali muzlatgichga (quyma sovutgich) quyiladi..




Bo'limlarga bo'lingan molxona



Nyu-York uslubidagi bo'yinbog' yordamida saqlash



Bog'langan sigirni, sog'ish jarayoni



Sog'ish tizimi

Erkin molxona (Freeburn) - bu sog'in sigirlarni bog'lamasdan, katta yopiq inshootda erkin harakatlanishiga imkon berib, boqishning bir usuli. Maxsus qoplama materiali, oziqlanish joyidan tashqari, butun molxona ustiga yotqiziladi. Ko'pincha qoplama sifatida qipiq (yog'och qipig'i) va qaytarilgan kompost (fermentlangan va qizitib, quritilgan kompost) ishlatiladi. Suv idishlari sifatida, suv dispenserlari ishlatiladi. Sog'ish ishlari, alohida sog'ish xonasida, amalga oshiriladi.



Erkin molxona



Sog'ish xonasi



Sog'ish roboti

Erkin yotoqqa ega bo'lgan molxona (Free Stall) - bu fotosuratda ko'rsatilganidek, alohida ajratilgan yotoq (sigir to'shaklari) mavjud. Bu erkin molxona (Freeburn) dan farqi hisoblanadi.



Erkin yotoqqa ega bo'lgan molxona ohiri
(yem yeyish uchun maxsus idish)



Erkin yotoqqa ega bo'lgan molxona yotog'i
(sigir yotog'i)

Erkin va yotoqqa ega bo'lgan molxonalarda, kuchli sigirlar, zaif sigirlarni siqib chiqarishi mumkin va buning natijasida ozuqa kam iste'mol qilinishi mumkin.

3 Sog'in sigirlarining ovqat hazm qilish tizimi

- Sog'in sigirlarning oshqozoni 4 kamerali bo'ladi.
- Eng katta oshqozon qorin bo'shlig'i bo'lib, u shirdon deb ataladi.
- Ko'p mikroorganizmlar shirdonda yashaydi va mikroorganizmlar ozuqani parchalaydi va sog'in sigirning tanasiga ozuqa moddalarini (uchuvchi yog'li kislotalar) yetkazib beradi.
- Sog'in sigirlar yegan yemlarini og'ziga qaytaradi, tishlari bilan maydalab, mayda bo'laklarga bo'lib, yana yutib yuboradi. Buni kovsh qaytarish va chaynash, deyiladi.
- Kovsh qaytarish va chaynash orqali ozuqani maydalaydi va shirdondagi mikroorganizmlarning parchalanishi va hazm bo'lishi tezlashadi.
- Sog'in sigirlarning qorin bo'shlig'ida, donli kraxmal va qo'pol ozuqa tolalaridan uchuvchi yog' kislotalari (sirka kislotasi, propion kislotasi, butir kislotasi) ishlab chiqariladi va ular sog'in sigirlarning tanasiga so'riladi va sut ishlab chiqarish va tanani saqlab turishga yordam beradi.
- Sog'in sigirlarda sut ishlab chiqarish va tanani saqlab turish uchun zarur bo'lgan oqsilla, r ingichka ichakdan so'rilgan aminokislotalardan hosil bo'ladi.

4 Ozuqa- yemish

- Qattiq turdagi ozuqa sifatida keng qo'llaniladiganlari-bu maysa silosi, makkajo'xori silosi, pichan silosi, dag'al achitilgan sholi (butun sholi donasi silosi), sholi somoni va boshqalar kiradi.

- Konsentrlangan ozuqa sifatida ko'pincha aralash ozuqa (omuxta), makkajo'xori, soya uni, kolza uni, kepak, oziq-ovqat ishlab chiqarishda qo'shimcha mahsulotlari (tofu uni, lavlagi uni), lavlagi granulasi va boshqalar ishlatiladi.
- Omuxta - bu turli xil, aralash yem ingredientlarini, ozuqa tayyorlash zavodida aralashtirish orqali, ishlab chiqarilgan ozuqa bo'lib, makkajo'xori ko'pincha don sifatida ishlatiladi va soya uni ko'pincha siqib olingan, yog'li ozuqa sifatida ishlatiladi.
- Silos - o't, sholi yoki makkajo'xori (poya, barg va donlari aralash), kislorod (havo)siz idishda, zich yopilib, saqlash orqali olinadigan ozuqa.
- Erta o'rilgan o'tlar, kech o'rilgan o'tlarga qaraganda, yuqori protein va tolalar (kletchatka) ning hazm bo'lishiga ega va to'yimli hisoblanadi.

Ozuqa turi



pichan



silos



Konsentrlangan ozuqa

Ozuqa-yemi inshooti



Silos minorasi



Silos bunkerlari



Omuxta ozuqa baki

5 Ozuqa-yemining ozuqaviylik qiymati

- (1) Yemning tarkibiy qismlari sifatida, xom protein, xom yog', uglevodlar, minerallar va vitaminlar ko'rsatilgan.
- (2) Sog'in sigir ozuqasining ozuqaviylik qiymati (energiyasi), Yaponiyada TDN (hazm qilinadigan ozuqa moddalarining umumiy miqdori) bilan belgilangan.
- (3) Yormalar yuqori TDN tarkibiga ega, sababi ular tarkibida ko'p miqdorda, yuqori darajada hazm bo'ladigan kraxmallar mavjud va makkajo'xori tarkibidagi TDN miqdori quruq mahsulotlarda 93,6 % ni tashkil qiladi.
- (4) Maysa tarkibida, juda ko'p tola (kletchatka) ni o'z ichiga oladi, lekin uning hazm bo'lishi, don kraxmaliga qaraganda past, shuning uchun uning TDN tarkibi makkajo'xoridan ham past bo'ladi.
- (5) Jadvalda ko'rsatilganidek, maysaning xom protein tarkibi va tola (kletchatka)ning hazm bo'lishi, maysaning o'rim vaqtiga qarab o'zgaradi. Erta o'rilgan o'tlar, ko'proq to'yimli bo'ladi.

O'tni o'rish vaqti va ozuqaviylik qiymati (Italiya javdari, ajriqbosh)

	Quloqlashdan avval	Quloqlash davri	Gullash davri
Italiya javdar o'ti			
Quruq mahsulotlarda, xom protein miqdori %	18.4	13.7	8.3
Tola (kletchatka)ning umumiy hazm bo'lishi %	75	60	50
Ajriqbosh o'ti			
Quruq mahsulotlarda, xom protein miqdori %	17.5	10.0	8.8
Tola(kletchatka)ning umumiy hazm bo'lishi %	70	60	47

6 Ozuqani ishlab chiqarish

(1) Silos - o't, guruch, makkajo'xori (poya, barg, donlari aralash) va boshqalarni kislorodsiz, havo kirmaydigan muhitda saqlash va ularni sut kislotasi bilan fermentatsiyalash orqali, tayyorlangan saqlanivchi ozuqadir.

(2) Yaxshi silos qilish uchun masalliqni mayda bo'laklarga bo'lish va yetarli darajada siqish va bostirish muhimdir.

Maysa silosini tayyorlash
Taxlangan silos



Harakatlanadigan o'roq bilan o'rish



Yaylov yig'im-terim ishlari



Taxlangan siloslarini tayyorlash



Taxlangan silos

Maysa silosining
rulonli toy ko'rinishi



Harakatlanadigan o'roq bilan o'rish



Rolikli presslash mashinasi bilan qadoqlash ishlari



O'rash mashinasi bilan o'rash



O'ramli silos

7 Oziqa-yemi bilan ta'minlash

- Qattiq turdagi yem va konsentrlangan yemni, alohida-alohida oziqlantirish usuliga, bo'lib oziqlantirish, deyiladi, har ikkalasini oldindan mikser (mikser) bilan aralashtirish va ularni birga berish usuli aralash oziqlantirish (TMR) deb ataladi.
- Emizuvchi sigirlarda (sog'in sigirlar) tug'ruqdan so'ng sut mahsuldorligi oshishi bilan yem-xashak iste'moli ham ko'payadi.
- Sut mahsuldorligi oshgani sari konsentrlangan ozuqa iste'moli ham ortadi, lekin bo'lib oziqlantirishda, qattiq turdagi va konsentrlangan ozuqa nisbati (muvozanati) hisobga olinishi lozim va konsentrlangan ozuqani ortiqcha iste'mol qilmaslikka e'tibor berish lozim. Shu nuqtai nazardan, aralash oziqlantirish (TMR) ikkala iste'molni ham muvozanatli tarzda, amalga oshirishni ta'minlaydi.
- Bo'lib oziqlantirishda, avval pichan, silos kabi qattiq ozuqalarni, keyin esa konsentratsiyalangan ozuqani berish lozim.

Quyidagi jadvalda sog'in sigirlar uchun ozuqa berish misoli keltirilgan.

Hokkaydo sutkalik sut mahsuldorligi 40 kg

Maysa silosi 10 kg, makkajo'xori silosi 14 kg, omuxta 10 kg, beda pichanlari 2 kg, lavlagi granulasi 3 kg

Ibaraki prefekturasi Kunlik sut mahsuldorligi 28 kg

Ajiriq pichani 4 kg, beda pichani 2,9 kg, Bermud pichani 3,4 kg, omuxta 6,3 kg, lavlagi granulasi 3 kg

8 Sut sifati va mastit (yelin kasalligi)

- (1) Sut sifati, jo'natilgan sigir sutlarining aralashmasi (bir qancha sigirlar suti aralashmasi) bilan aniqlanadi.
- (2) Sutning tannarxi, aralash sutning sinov natijasiga qarab o'zgaradi.
- (3) Agarda, podalarda sut sifati sinovi o'tkazilsa, har bir sigir sut sifati, har oyda bir marta tekshiriladi.

Sut sifati me'zonlari (misol)

		Yuqori sut sifati	Standart sut sifati	Yaxshilanishi zarur bo'lgan sut sifati
Sutdagi yog'lar nisbati	%	3.9 yoki undan yuqori	3.5-3.89	3.0-3.49
Sut oqsillari darajasi	%	3.4 yoki undan yuqori	3.1-3.39	2.8-3.09
Yog'siz qattiq moddalar miqdori	%	8.8 yoki undan yuqori	8.5-8.79	8.0-8.49
Somatik hujayralar o'n minglab / ml		10 dan kam	10-29	30-99, ko'proq

- Tug'ruqdan so'ng, ilk sut kelishi, og'iz suti, deb ataladi.
- Og'iz sutining tarkibiy qismlari, odatdagi sut (normal sut) dan farqli bo'lgani uchun, tug'ruqdan so'ng, 5 kun davomida sutni jo'natib bo'lmaydi.
- Mastit - bu sog'in sigirlarning yelinida, patogen bakteriyalarning ko'payishi natijasida, yuzaga keladigan kasallik hisoblanadi. Mastit ko'krakning yallig'lanishiga olib keladi, bu esa isitma, ko'krakning shishishi va og'riq kabi klinik belgilarga olib keladi. Ko'krak patogen bakteriyalar bilan ifloslangan bo'lsa, oq qon hujayralari soni ko'payadi va oq qon tanachalari, sutdan ajralib chiqadigan bakteriyalar kabi begona moddalarni zararlaydi va somatik hujayralar sonini oshiradi. Sutdagi somatik hujayralar, ushbu oq qon hujayralari va sut bezining teri hujayralarining eksfoliatsiyalangan qismlaridan iborat. Sog'lom sigirlarning somatik hujayralari soni odatda, 200000 / ml ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, sutdagi somatik hujayralar soni, sutning gigiyenik sifatini baholash uchun xizmat qiladi.

9 Ovqat hazm qilish va tuyuq kasalliklari

- (1) Sog'in sigirlar dastlab, o'txo'r va o't yeyuvchi hayvonlar bo'lgan, ammo hozirgi kunda yuqori sut ishlab chiqarishi uchun donli kraxmal miqdori oshirilmoqda.
- (2) Donli kraxmal, o't tolalariga qaraganda, qorin bo'shlig'ida tezroq hazm bo'ladi va uning yuqori ozuqasi ko'p miqdorda uchuvchi yog' kislotasi va sut kislotasini ishlab chiqaradi.
- (3) Shuning uchun, don ozuqasi yuqori bo'lsa, qorin bo'shlig'ining pH (vodorod ionlari konsentratsiyasi) pasayadi va oshqozon atsidozi va tuyuq kasalliklarini rivojlanish xavfi mavjud.
- (4) Yaponiyada tuyuq kasalliklari (laminit, tuyuq kasalligi) tufayli, ko'pincha mollardan voz kechiladi.
- (5) Tuyuq kasalliklari, sog'in sigirlarning konsentrlangan ozuqani tanlab oziqlantirish (tanlab iste'mol qilish) natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.
- (6) Quyidagi jadvalda, orqa qorin ko'chishi, qorin bo'shlig'ining atsidozi va laminit bilan kasallangan qoramollarning holati ko'rsatilgan.

Sog'in sigirlarining ovqat hazm qilish organi kasalliklari va laminit

Kasallik	Kelib chiqish sababi	Sog'in sigirlarda kasallik alomatlari
Orqa qorinning siljishi	Tug'ruqdan so'ng, qattiq turdagi ozuqaning yetishmasligi va konsentrlangan ozuqaning ko'p miqdorda berilishi tufayli yuzaga keladi	Ishtaha yo'qolishi, holsizlik, sutdan qolish
Qorin bo'shlig'i atsidozi	Yorma kraxmalini ko'p iste'mol qilish tufayli, sut kislotasi qorin bo'shlig'ida to'planadi va pH keskin pasayadi.	Ishtahaning yo'qolishi, qorin bo'shlig'i faoliyatining pasayishi, sut mahsuldorligining pasayishi, jigar faoliyatining pasayishi
Laminit	Qorin bo'shlig'i atsidozidan hosil bo'lgan sut kislotasi va gistamin tuyoq dermasining kapilyarlariga ta'sir qilib, yallig'lanishni keltirib chiqaradi.	Yurishga qiynalish oqibatida, suv idishlari va suv dispenserlariga yaqinlasha ololmaslik, ozuqa iste'moli kamayishi, sut mahsuldorligining pasayishi

(Sigir kasalliklarini o'rganish, Modern Publishing Co., Ltd., 1980)

10 Sog'in sigirlarini ko'paytirish

- Tug'ruqdan so'ng, sog'in sigirlar o'rtacha har 21 kunda, bir marta hayz ko'radi.
- Hayz kelishni e'tiborsiz qoldirmasdan, sun'iy urug'lantirishni amalga oshirish muhimdir. So'nggi vaqtlarda, nafaqat sun'iy urug'lantirish, balki yapon qora molining urug'langan tuxumdonlari ko'chiriladigan - tuxumdonlar transplantatsiyasi ham mashhur bo'lmoqda.
- Ko'pincha muzlatilgan urug'lar (spermalar) ishlatiladi.
- Sog'in sigirlar hayz ko'rish vaqtida, tashqi jinsiy a'zosi lablari qonga to'lib ishadi va shilimshiq suyuqlik ajralib chiqadi.
- Hayzning eng yuqori cho'qqisida, boshqa buqalar tomonidan minishga harakat qilinsa ham, bunday holatga ijozat beriladi (doimiy hayz) va bunday holatni kuzatish juda muhimdir.
- Homiladorlikni tasdiqlash, homiladorlik testini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- Sog'in sigirlar uchun muqobil tug'ruq oralig'i, yiliga bir marta.



Sun'iy urug'lantirish

11 Tug'ruq

- Sog'in sigirning tug'ish vaqtida, buzoqning vazni taxminan 45 kg ni tashkil qiladi.
- Tabiiy tug'ruq, muqobildir, ammo tug'ruq qiyin kechsa, veterinar talab qilinadi.
- Veterinar tug'ruq vaqtida, ona sigirning tug'ilish yo'liga zarar yetkazmasligi yoki bakterial infeksiyani keltirib chiqarmaslik uchun ehtiyot bo'lish lozim.
- Buzoq tug'ilgandan keyin taxminan 6 soat ichida, yo'ldosh (tug'ruqdan keyin) chiqariladi.
- Ona sigir, tug'ilgan buzoqni tana yuzasini quritish uchun yalaydi, lekin buzoqni quruq yotoqqa o'tkazish juda muhimdir.

12 Og'iz sutini berilishi

- Tug'ilgan buzoqqa, immunitetini yaxshilash uchun ko'p miqdorda immunoglobulin bo'lgan og'iz sutidan berish muhimdir.
- Buzoqlar tug'ilgandan so'ng, kamida 3 kun davomida og'iz suti bilan boqish tavsiya etiladi.

13 Buzoqlarni boqish va ko'paytirish

- (1) 6 haftalik yoshda, erta sutdan ajratish usuli tavsiya etiladi, ammo bu holda oziqlantirish usuli quyidagi jadval asosida olib boriladi.

Erta sutdan ajratish usuliga ko'ra oziqlantirish (misol)

Og'iz suti	Tug'ilganidan so'ng 4 soat ichida 1 ~ 2 litr, 4 ~ 6 soat oralig'ida 2 litr
Sut o'rnini bosuvchi, ona suti	Sut o'rnini bosuvchi suyuq ozuqa bo'lsa, 1 kuniga 600 g (iliq suvda eritilgan), ona suti yordamida oziqlantirilsa, 1 kuniga 4.5kg - bu 6 haftagacha beriladi
Buzoqlarga qo'shimcha sut ozuqasi	Sutdan ajratilgan buzoqlar uchun konsentrlangan ozuqa (sun'iy sut) taxminan 1 haftalikdan boshlab beriladi. 1 ~ 2 haftalik 0,1 kg / kun 2 ~ 3 haftalik 0,2 kg / kun 3 ~ 4 haftalik 0,5 kg / kun 4 ~ 5 haftalik 0,8 kg / kun 5 ~ 6 haftalik 1,2 kg / kun (So'ngra, 3 oylikgacha asta-sekin oshirib boriladi, maksimal 2,5 kg / kuniga)
Pichan	Sifatli pichan bilan erkin boqish

("Yaponiyada mollarni yetishtirish me'zonlari", "Sog'in sigir", "Yetishtirishda veterinariya tibbiyot tizimi", "Sog'in sigir 1 nashri")

(2) Sog'in sigirlarni yetishtirish davrida, quyidagi ikki maqsadga erishish lozim.

- ① Yuqori sifatli, qattiq turdagi ozuqalar bilan boqilishi natijasida, birinchi oshqozon yetarlicha rivojlangan.
- ② Me'yori jismoniy mashqlar yordamida, mushaklar va skeletlarni to'liq rivojlantirish.

14 Buzoq sog'lig'ini saqlash

- Buzoqlar diareya, sepsis va pnevmoniyaga moyildir.
- Buzoqlarni, yaxshi shamollatiladigan, quyoshli va toza muhitda boqish muhim ahamiyatga ega.
- Buzoqlarni boqishda ko'pincha, buzoq lyuklari va buzoqlar uchun maxsus kataklari ishlatiladi.
- Buzoq lyuklari va buzoqlar uchun maxsus kataklariga maxsus qoplama materialini ko'p miqdorda qo'llash va uni toza saqlash muhimdir.



Buzoq lyuklari

15 Tana holati ko'rsatkichi

- (1) Tana holati, sog'in sigirlarda teri osti yog'ining to'planish darajasini bildiradi.
- (2) Tana holatining raqamli ko'rsatkichi, tana holati ko'rsatkichi, deb ataladi va BCS bilan ifodalanadi.
- (3) BCS 2,0 ~5,0 gacha belgilanadi.
- (4) BCS ko'rsatkichi, son suyagi, bel burchagi, chanoq suyagi, biqin kuraklari, orqa kurak paylari va kesishgan paylarni kuzatish orqali aniqlanadi.
- (5) BCS, sut ishlab chiqarish va reproduktiv ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, sog'in sigirlarning ko'payish davriga ko'ra, quyidagi maqsadli qiymatlar belgilanadi.
 - ① Tug'ruq vaqtida ko'rsatkich oralig'i, taxminan 3,50 va 3,25~3,75 gacha.
 - ② Emizish boshlanganidan so'ng, maksimal pasayish 0,75~ 1,0 gacha.
 - ③ Tug'ruqdan so'ng, kech bo'lsa ham taxminan 100 kundan keyin tiklanish boshlanishi lozim.
 - ④ Sutdan qolish davrida, 3,25 ~3,75 oralig'ida qilinadi.

Tana holati

<Oddiy tana holatini baholash namunasi>

Oddiy BCS = 2 Ozib ketish

Butun tanasi: Sur'atda, juda ozib ketgan, deb baholanadi.
Quvvatsizlik, qorin tepaga so'rilib ketgan va o'zini tutib olishiga umid yo'q.

Dumba: V shaklida
Son a orqa kuraklari burchakli.



Oddiy BCS = 3 Oddiy

Butun tana: Fotosur'atda, ozgina yog' to'planishi ko'rsatilgan, ammo u normal, deb topilgan.
Tananing har bir qismi aniq konturga ega va tanada yetarlicha quvvat mavjud.

Dumba: V shaklida
Son a orqa kuraklari dumaloq.



Oddiy BCS = 4 Haddan tashqari boqilgan

Butun tana: Sur'atdagi mol, haddan tashqari boqilgan, deb topilgan.
Teri osti ortiqcha yog' to'plangan va konturlar juda noaniq.
Tug'ruqdan so'ng muammolar tug'ilishi xavfi mavjud.

Dumba: U shaklida
Son a orqa kuraklarini yog' bosgan.



Fotosur'atlar (butun tana sur'atlari, 3 dona) taqdim etilgan: "Milliy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tadqiqotlari" tashkiloti, katta ilmiy xodimi, Akiko Nishiura

Fotosur'atlar (dumba holati sur'atlari 6 dona) taqdim etilgan: Tochigi prefekturasi, "Chorvachilik sut sanoati ilmiy markazi"

16 Go'ng turlari

- Sog'in sigirlarning go'ngi uch xil bo'ladi: qattiq, shlak va suyuq.
- Qattiq – peshobdan ajratilgan bo'lib, najas va qoplama materiali aralashmasi bo'lib, undan kompost tayyorlanadi.
- Suyuq - bu najasdan ajratilgan, peshob.
- Shlak - bu najas va peshob aralashmasi bo'lib, u baklarda saqlanadi va o'g'it va metan gazni ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.



Najas va qoplama material aralashmasini, konveyer yordamida molxonadan olib chiqish



Go'ng uchun mo'ljallangan katta baklar

17 Kompostni tayyorlash va undan foydalanish

- Kompost - bu sog'in sigirlarining najasi va qoplama materialining aralashmasi aerob (kislordga boy muhitda) muhitida parchalanadi, suv miqdorini kam bo'lgan mahsulotdir.
- Sifatli kompost qilish uchun, yetarli miqdorda havo berish kerak va buning uchun ag'darish (qo'zg'atish, aralashtirish) amalga oshiriladi.
- Kompost o'g'it sifatida qo'llaniladi. Quritilgan kompost, ba'zan qaytadan, molxonaga yotqiziladigan qoplama materiali sifatida ishlatiladi, bu "qaytarilgan kompost", deb ataladi.
- Kompost tarkibida suvning eng muqobil ko'rsatkichi 60~65 % darajasigacha bo'lib, bunga erishish uchun uni tayyorlashda qo'shimcha materiallardan foydalaniladi.
- Agarda, kompostlash muvaffaqiyatli davom etsa, harorat ko'tariladi. Bunday holda, harorat 70~80 °C gacha ko'tariladi va yuqori harorat patogen bakteriyalarni, parazitlarni va begona o't urug'larini o'ldiradi.



Kompost inshooti

1 “Vagyu” (Yapon qoramoli)

Vagyu- Yaponiyaga hos qoramoli bo'lib, uzoq vaqt davomida yetishtiruvchilar tomonidan ko'paytirilib, zoti mukammallashtirilib, kelinmoqda va u Yaponiyada himoya qilib kelinadigan hayvondir. Yapon qora zoti (qoramoli), yapon jigarrang zoti (jigarrang), yapon kalta junli qoramoli va yapon shoxsiz qoramollari mavjud, lekin eng keng yetishtiriladigan turi, yapon qoramoli bo'ladi. Yapon qoramoli, tabiatan yumshoq turlarga kiradi.

(1) Nasldor sigirlarni oziqlantirishni boshqarish

① Nasldor sigirlarni, tabiiy oziqlantirishdagi ozuqa nazorati

○ Homiladorlikning so'nggi oylarida

- Tug'ilishdan 2 oy oldin, homila tez rivojlanadi.
- Ona sigir tanasini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan oziquqalar va homila tanasining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ozuqalar talab qilinadi.

○ Emizish davri

- Ozuqani, sut mahsuldorligiga qarab, berish kerak.
- Ona sigirning oziqlanish holatiga qarab, yem miqdorini oshirish yoki kamaytirish lozim.

② Sun'iy oziqlantirishda, nasldor sigirlarning ozuqaviy nazorati

Tabiiy ozuqa bilan oziqlanadigan ona sigirlarga nisbatan, emizish (laktatsiya) davri deyarli bo'lmaydi.

○ Homiladorlik davri

- Tabiiy ozuqa bilan oziqlanadigan ona sigirlarga o'xshaydi.

○ Laktatsiya davri

- Ozuqa-yemini, homiladorlikning ohirgi davrlarida ham davom ettirish mumkin.
- Ona sigirning oziqlanish holatiga mos keladigan miqdorda ozuqa-yemi berilishi lozim.

(2) Go'sht uchun mo'ljallangan (go'shtli sigirlar) g'unajinlarni ko'paytirish

- Tug'ruqdan so'ng, go'shtli sigirlar, o'rtacha har 21 kunda hayz ko'radilar.
- Hayz davrini e'tiborsiz qoldirmasdan, sun'iy urug'lantirishni amalga oshirish muhimdir.
- Yapon qora molining (Vagyu) urug'i va urug'langan tuxumdonlari, yapon chorva yetishtiruvchilari uchun juda muhim hisoblanadi, shuning uchun ularni to'g'ri nazorat qilish muhim bo'lib, masalan, ularni yo'qotmaslik uchun qulflangan joyda saqlash lozim.
- Go'shtli qoramollar g'unajinlarida, hayz davrida, tashqi jinsiy organlari lablari qontalash bo'lib shishadi va shilimshiq suyuqlik ajraladi.

- Hayzning eng yuqori cho'qqisida, boshqa buqalar tomonidan minishga harakat qilinsa ham, bunday holatga ijozat beriladi (doimiy hayz) va bunday holatni kuzatish juda muhimdir.
- Homiladorlikni tasdiqlash uchun, homiladorlik testini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- Go'shtli qoramollar g'unajin sigirlari uchun muqobil bolalash oralig' davri, yiliga bir marta hisoblanadi.



Hayz davri xatti- harakati

(3) Tug'ruq

- Go'shtli qoramollarining tug'ruq vaqtidagi, buzoq tana vazni, taxminan 30 kg ni tashkil qiladi.
- Tabiiy tug'ruq, muqobildir, ammo tug'ruq qiyin kechsa, veterinar talab qilinadi.
- Veterinar tug'ruq vaqtida, ona sigirning tug'ilish yo'liga zarar yetkazmasligi yoki bakterial infeksiyani keltirib chiqarmaslik uchun ehtiyot bo'lish lozim.
- Buzoq tug'ilgandan keyin taxminan 6 soat ichida, yo'ldosh (tug'ruqdan keyin) chiqariladi.
- Ona sigir, tug'ilgan buzoqni tana yuzasini quritish uchun yalaydi, lekin buzoqni quruq yotoqqa o'tkazish juda muhimdir.

(4) Yapon qoramollarini boshqarish

① Tug'ilgan vaqtdagi vazni

Yapon qoramolining tug'ilgan vaqtidagi vazni, taxminan 28 kg ni tashkil qiladi.



Tug'ruqdan so'ng



Tabiiy ozuqalar bilan oziqlantirish



Sun'iy oziqlantirish

② Og'iz sutining berilishi

Og'iz suti, tug'ilgandan 2-3 kun o'tgach beriladi. Og'iz sutini emganligini nazorat qilish lozim, chunki u buzoq kasalliklarini yuqtirish olishiga chidamli bo'lgan, immunoglobulinlarni o'z ichiga oladi.

③ Tug'ilishdan so'ng oziqlantirish dasturi

Quyidagi jadvalda, yapon go'shtli qoramollarini yetishtirish bo'yicha belgilangan me'zon asosida, erda sutdan ajratilgan buzoqlar uchun (og'iz sutidan so'ng) oziqlantirish dasturi ko'rsatilgan (2008 yil nashri).

Sut o'rnini bosuvchi moddalarga yog'sizlangan sut kukuni, quritilgan sut zardobi va yorma uni kiradi. Sun'iy sut emizish davrida, qattiq ozuqa sifatida, bug'doy, arpa, makkajo'xori va soya unini o'z ichiga oladi.

Tug'ilgandan so'ng yosh ko'rsatkichi	Sut o'rnini bosuvchi ozuqa miqdori (Havoda quritilgan mahsulot g / kun)	Sun'iy sut berilishi miqdori (Havoda quritilgan mahsulot g / kun)	pichan
8-13 kun	400		Erkin oziqlantirish
14-17 kun	500		
18-21 kun	500	100	
22-28 kun	500	200	
29-35 kun	500	300	
36-42 kun	500	500	
43-49 kun	250	800	
7—8 hafta	(250)	1200	
8—9 hafta	(250)	(1000)	
9—10 hafta	(250)	1400	
10—11 hafta		(1200)	
11—12 hafta		1500	
12—13 hafta		(1300)	
13—14 hafta		1600	
		1700	
		1800	
		1900	

() ichida: 7 haftalik yoshdan keyin ham, ona suti bilan boqilayotgan buzoqlar uchun ozuqa-yemi miqdori

Sut o'rnini bosuvchi: sut o'rnini bosuvchi, suvda eritiluvchi ozuqaning, suv harorati, ko'krag suti harorati bilan o'xshash 38 ~ 40 °C bo'lishi lozim. Shu sababli, 45~50°C gacha bo'lgan, issiq suvda eritish tavsiya etiladi. Sut o'rnini bosuvchi ozuqani eritganda, issiq suv tayyorlash, unga sut ozuqasini solib, aralashtirib, eritish lozim. ("Milliy qoramol go'shtini ko'paytirish jamg'armasi" / "Markaziy chorvachilik uyushmasi", "Go'shtli qoramollarni boshqarish texnologiyasi", 2006 yil)

④ Buzoqlarni boshqarishda asosiy jihatlari

Yangi tug'ilgan buzoqlar, patogen mikroorganizmlarga chidamsiz bo'lib, ona sigirlardan bakterial infeksiyalar yuqishining oldini olish uchun, ularni buzoq lyuklari kabi faqat buzoqlar uchun mo'ljallangan muassasalarga o'tkazish yo'li bilan nazorat qilinadi (Sog'in sigirlar, 44- bet, " **14** Buzoq salomatligini nazorat qilish"ga qarang).

Har kuni, yangi tayyorlangan sun'iy sut va pichan bilan boqish lozim. Yaxshi, sifatli pichan berilishi lozim.

Ich ketishda va yumshoq najas holatlarini kuzatish lozim.

Pnevmoniya qo'zg'atuvchisi quyidagi sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin: "stress va ozuqa moddalarining yetishmasligidan, immunitetning zaiflashishi", "sovuq va quruqlikdan, bronxlar shilliq qavatining shikastlanishi", "ammiak gazi ta'sirida shilliq qavatining shikastlanishi", sharoitida rivojlanadi. Buning oldini olish uchun "molxonadagi ammiak gazini bartaraf qilish", "molxonani tozalash", "buzoqni issiqlikda tutish", "stressni kamaytirish uchun yetarli miqdorda ozuqa berish", "og'iz sutini berish" muhim ahamiyatga egadir.

(5) O'sish davri boshqaruvidagi asosiy jihatlari

O'sish davri deganda, bo'rdoqiga boqiladigan go'shtli qoramollarda, sutdan ajratilgandan boshlab, ozuqa-yemini berishni boshlanishigacha, bo'lgan davrdir. Ushbu davrda, ichki organlarni rivojlantirish, mushaklar va skeletni kuchaytirish uchun yetarli darajada, yuqori sifatli qattiq turdagi ozuqa bilan ta'minlash muhimdir.

Buqalarni axtalash yoshi kamida, 4-5 oylik bo'lishi lozim.

(6) Bo'rdoqiga boqish

Yapon qoramolini bo'rdoqiga boqish davri, 10 oylik bo'lib, taxminan 300 kg dan boshlanadi va bir to'dada (qorada) bir nechta boshli guruhlarda saqlanadi. Bo'rdoqiga boqish, asosan konsentrlangan ozuqada, taxminan 20 oy davomida amalga oshiriladi.

① Yapon qoramollarining bo'rdoqiga boqish davrida, ozuqa bilan oziqlantirish

Bo'rdoqiga boqish davridagi ozuqa, asosan donli (makkajo'xori, arpa) dan tashkil topgan, konsentrlangan ozuqa bo'lib, qattiq turdagi ozuqa bilan boqishning birinchi yarmida, pichan va sholi somoni (10 oydan 16 oygacha), undan keyin esa guruch somoni bilan oziqlantiriladi. Bo'rdoqiga boqish davridan avval va boqish davrida, guruch somonining miqdori taxminan 2 kg ni tashkil qiladi, boqishning ikkinchi yarmida esa, taxminan 1 kg ni tashkil qiladi.

② Bo'rdoqiga boqish davrida, ozuqani iste'mol qilish va natijalar (sinov namunasi)

	Ozuqani qabul qilish miqdori (Quruq mahsulot kg /kun)		Kundalik vazn ortishi kg / kun	Jo'natish vaqtidagi vazni kg
	Konsentrlangan ozuqa	Guruch somoni		
Birinchi bosqich	6.2	1.8	0.97	
Ikkinchi yarim yillik	7.2	0.9	0.67	725

Birinchi bosqich 10 oydan 18 oygacha

Keyingi bosqich 18 oydan 27 oygacha

③ Bo'rdoqiga boqish davrini boshqarishda asosiy jihatlari

Bo'rdoqiga boqishning keyingi bosqichlarida, ozuqa iste'moli doimiy bo'lmaydi va ma'lum bir vaqtda ishtahaning birdaniga pasayishi mumkin, bu "iste'mol uzulishi", deb ataladi. Kundalik oziqlanishdagi o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borish lozim va "iste'mol uzulishi" aniqlanganda, sababini o'rganish uchun veterinar bilan maslahatlashish va uni oziqlantirish usulida aks ettirish lozim. Iste'mol uzulishining keng tarqalgan sabblaridan biri – bu Oshqozon atsidozi bo'lishi mumkin. Bu donli ozuqani ko'p berish natijasida, yuzaga keladigan kasallik.

Urolitiyoz - bu bo'rdoqiga boqiladigan hayvonlarda keng tarqalgan, siydik yo'llari kasalligi hisoblanadi. Dastlab, jinsiy a'zolari hududida, mayda kulrang-oq toshlar kuzatiladi. Og'ir holatlarda bel og'rig'i va siydikni ushlab turish paydo bo'lishi, ishtaha yo'qolishi, siydik pufagining yorilishi va uremiya tufayli o'limga olib kelishi mumkin. Buni erta aniqlash va veterinar tomonidan erta bosqichda tashxis qo'yilishi lozim.

Bo'rdoqiga boqish davridagi boshqa kasalliklar orasida, urolitiyoz va oshqozon atsidozidan tashqari, boqiladigan qoramollarda, dam bo'lish mavjud. Bu alomat oshqozonda hosil bo'lgan gazlar yaxshi chiqarilmaganda, paydo bo'ladi.

Sigirlar to'rt oyoqlari bilan katta vazni ushlab turadi, shuning uchun tuyoqlarni yaxshi holatda saqlash, bo'rdoqiga boqiladigan sigirlarning sog'lig'ini saqlash uchun juda muhimdir, bu esa muntazam ravishda tuyoqlarni kesishni talab qiladi.



Muqobil uzunlikdagi tuyoqlar



Juda uzun tuyoqlar

④ Yapon qoramoli (Vagyu) ning tana go'shti

Mol go'shti savdosi, butun tana go'shtining baholanish ko'rsatkichlariga asoslanadi. Butun tana go'shti-bu sigir tanasining ichki a'zolari va terisi olib tashlangan qismidir. Baholashda, butun tana go'shtining 6~7 qovurg'alari orasidan kesma qilinib, undagi yog'lar kesishma to'ri, go'sht rangi, go'shtning zichligi va teksturasi, yog' rangi va sifatini baholab, baholash lozim. Yapon qoramollarining o'ziga xos xususiyati shundaki, yog'lar kesishma to'ri darajasi, boshqa qoramollarga (gibrid va golshteyn qoramollari) nisbatan yuqori bo'ladi.

Yapon qoramollarining boqish davrining uzoq davom etishining sabablaridan biri, ularning yog'lar kesishma to'ri yuqori darajasini talab qilinishidir. Yog'lar kesishma to'ri chorvachilikda "marmarligi", deb ham ataladi.

Yog'lar kesishma to'ri darajasini oshirish uchun, A vitaminini rejali berish, amalga oshiriladi.

2 Golshteyn axtalangan buqalari

Sog'in sigirlarning Golshteyn buzoqlari, axtalanadi va go'shtli qoramol sifatida boqiladi. Bu odatda, Golshteyn axtalangan molini boqish, deb ataladi.

(1) Golshteyn buzoqlarini boshqarish

① Golshteyn buzoqlarining tug'ilgan vaqtidagi vazni

Golshteyn buzoqlarining o'rtacha tug'ilish vazni, taxminan 45 kg ni tashkil qiladi.

② Og'iz sutini berilishi

Yapon qora mollari uchun, oldingi bo'lim (51- bet) bilan bir xilda amalga oshiriladi. Og'iz sutini berish, sog'lom sigirlarni ko'paytirishning birinchi bosqichi, hisoblanadi.

③ Tug'ilishdan so'ng, oziqlantirish dasturi

Yapon qoramollari kabi, emizish davridagi ozuqa dasturi ham xuddi shunday jarayonga amal qiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, og'iz sutni yetarli darajada berilgandan so'ng, sut o'rnini bosuvchi ozuqa, aralashma va pichan bilan boqilishi lozim (oldingi bo'limga qarang). Og'iz sutidan, sut o'rnini bosuvchi ozuqaga o'tganda, buzoqlarda ich ketish holatlari tez-tez uchraydi, shuning uchun ozuqani birdaniga

almashtirish o'rniga, sut o'rnini bosuvchi ozuqa bilan og'iz sutini navbatma-navbat aralashtirib berilib, buzoqning holatini kuzatiladi va asta-sekinlik bilan almashtirib boorish mumkin.

Quyidagi jadvalda, yangi tug'ilgan buzoqlarning normal najas holati ko'rsatilgan.

Buzoqning normal najasi

Najasning tasnifi	Najas xususiyatlari
Tug'ilgandan keyin 1-hafta	Najasning rangi- sariqdan och jigarranggacha, qattiqligi- bo'tqadan yog'ga oxshash yog'liq, yopishqoq hamda tarkibida durdasimon qattiq donachalar mavjud emas. Chiqishdagi shaklini saqlagan.
Sut o'rnini bosuvchi ozuqaga almashtirilgandan so'ng	Najasning rangi- sariqdan kul ranggacha bo'ladi. Pichan yoki somonni iste'mol qilishni boshlasa, qattiq tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan, yog'ga o'xshash yog'li, yopishqoq hamda kukunsimon qattqlikka ega bo'ladi.

(2) Buzoqlarni boshqarishda asosiy jihatlar

Bu avvalgi bo'limdagi, yapon qora qoramollarining "Buzoqlarni boshqarishda asosiy jihatlar" (50- bet (4)) bilan bir xil, amalga oshiriladi. Quyidagi fotosur'atda, buzoq lyukidaboqilayotgan holat ko'rsatilgan.



Golshteyn buzog'i va maxsus lyuk-kataklari

① Shoxlarni kesish

Sigirlarni podada boqishda, shoxlar o'sgan holicha qoldirish, "boshqaruvchi uchun xavf" tug'dirib, "sigirlarning o'zaro suzishi oqibatida kelib chiqadigan jarohatlar" ga olib kelishi mumkin, shuning uchun Golshteyn buzoqlari shoxlari, 3 oygacha shoxlari kesib tashlanadi.

② Axtalash

Buqalar o'rtasidagi raqobatni kamaytirish va go'sht sifatini yaxshilash uchun, 3 oylikdan so'ng axtalash lozim.

(3) O'sish davri boshqaruvidagi asosiy jihatlari

4~10 oygacha bo'lgan davrda, o'sish davridagi boshqaruvning asosiy jihatlari, "kavsh qaytaruvchi hayvonlarning oshqozonini rivojlantirish va qorin bo'shlig'ining o'sishini rag'batlantirish" va "mushaklar va skeletni kuchaytirish"dan iboratdir. Shuning uchun, yuqori sifatli pichanni, doimiy ravishda berish bilan birga, to'g'ri miqdordagi omuxtani berish muhimdir. Omuxtaning muqobil berilish miqdori, 5 oylikda 5 kg, 6 oylikda 6 kg kabi me'zoni belgilangan.

(4) Golshteyn axtalangan buzoqlarini boqish

Golshteyn buzoqlarini bo'rdoqiga boqish davri, 7~8 oylikdan boshlanadi, og'irligi taxminan 280 kg bo'lib birinchi bosqichda, 20 oylikda so'yiladi.

Kyushu hududida, Golshteyn buzoqlarini boqishda, ozuqa bilan oziqlantirish misoli quyida ko'rsatilgan.

Kyushu vhududidagi bo'rdoqiga boquvchi xo'jaliklarda, yem-xashak bilan oziqlantirish misoli

Bo'rdoqiga boqish yoshi	7-11	11-18	18-22
Davrining tana vazni ortishi kg / kunda	1.3	0.7	0.8
Guruch somoni kg / kuniga	3	1	0.6
Pichan kg/ kuniga	1	0	0
Omuxta yemi kg / kuniga	4	10-11	12

(5) Bo'rdoqiga boqish davrini boshqarishning asosiy jihatlari

Yapon qora mollarini boqish bo'limida aytib o'tilganidek, har kuni oshqozon atsidozi va urolitiyozni kuzatish, veterinar bilan maslahatlashish va tibbiy davolanish talab etiladi.

3 Duragay (F1)

Sog'in sigirlarning Golshteyn zoti urgo'chisi, yapon qora moli bilan sun'iy ravishda urug'lantiriladi va tug'ilgan buzoq- duragay, (F1) deb ataladi. Duragayning tug'ilish vazni, taxminan 40 kg ni tashkil qiladi, bu yapon qora mollari va golshteyn zotlari o'rtasidagi ko'rsatkich hisoblanadi. Golshteyn zotiga qaraganda, kichikroq bo'lib, birinchi tug'ayotgan sigirga, Golshteyn zotini tug'ishini osonlashtiradigan afzalliklarga egadir.

(1) F1 sigiridan maqsad

Chorvachilikda yetishtirishdan maqsad, yapon qoramollariga xos bo'lgan, go'shtli qoramollarining butun tanasida, "marmar" go'shti va go'shtli qoramollarga xos bo'lgan, og'ir vaznga ega bo'lgan Golshteyn qoramollari xususiyatlarini o'zida jamlagan, go'shtli qoramollarni yetishtirishdan iboratdir.

(2) Buzoqlarni boshqarish, ko'payish davrini boshqarish, bo'rdoqiga boqishni boshqarish

Bu haqida, yuqorida aytib o'tilgan yapon qora mollari va Golshteyn buzoqlari bo'limi bilan bir xil bo'lib, duragaylash bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, o'sha bo'limga asoslaning.

(3) Duragay qoramollarni boqish

Duragay mollarini boqish, 7 oylikdan boshlanadi va vazni taxminan 250 kg ni tashkil qiladi hamda standart jo'natish uchun 25 oylik va taxminan 730 kg, me'yor hisoblanadi.

Quyida, duragay qoramollari uchun boqish tizimi na'munasi keltirilgan.

Duragaylarni boqish tizimi (misol)

	Birinchi bosqich	O'rta bosqich	Ikkinchi yarim yillik
	7 oydan 11,5 oygacha	11,5 dan 18,5 oygacha	11,5 dan 25 oygacha
Kunlik vazn ortishi kg	1,0~1,17	1,17~0,83	0,67~0,33
Omuxta yemi kg / kuniga	5,0~8,5	9,0~11,0	8,5~7,5
Beda granulalari	1,2~0,7	0,5 (~ 13,5 oy)	0
Guruch somoni	0,6~1,0	1,0	0,8~0,6

* Omuxta yemi: arpa oxirgi 22 dan 25 oygacha kiritilgan

1 Cho'chqalarning reproduktiv fiziologiyasi va ularni boshqarish

Urg'ochi cho'chqa hayz tsikli 21 kunni tashkil etadi va hayz belgilari kuzatilmaydigan erta hayz davri, kech hayz davri va hayzdan qolish davri, takrorlanadi. Urg'ochi nasldor cho'chqalar, juftlashtirishga mos vaqtda juftlashtiriladi. Tabiiy juftlash yoki sun'iy urug'lantirish (AI) yoki ikkalasi ham amalga oshirilishi mumkin. Juftlashgandan so'ng, yigirma bir kun o'tgach, hayz bo'lmasa, homilador ekanligini aniqlash mumkin.

Homiladorlik davrida, cho'chqalar alohida cho'chqaxonasiga o'tkaziladi va tug'ish yaqinlashganda, panjara bilan o'ralgan maxsus tug'ruq xonasiga o'tkaziladi.

Cho'chqalar tug'ilishida qiyinchiliklar kam uchraydi va cho'chqalar taxminan 10 daqiqalik oraliq bilan birma-bir tug'iladi. Birinchi cho'chqa bolasi tug'ilgandan so'ng, keyingi tug'ruq boshlanadi va 2-3 soat ichida tugaydi. Cho'chqa bolasi tug'ilgandan so'ng, cho'chqa bolasini emizishda hayz bo'lmaydi. Cho'chqa bolasi vazni og'irlashganda, hayz 4-5 kundan keyin takrorlanadi.

Homilador cho'chqalarning semirib ketishi, homila o'sishiga olib kelib, tug'ruqdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, shuning uchun jismoniy holatni kuzatigan holda, ovqatlanishni cheklash lozim. Homiladorlikning ohirgi davrida, homila o'sishini ta'minlash uchun oziqlantirish miqdori biroz oshiriladi.

Emizish davrida, ko'paytiriladigan cho'chqalari laktatsiya tufayli, vazn yo'qotishga moyil bo'lib, bu davrda ko'proq ozuqa berilishi lozim.

Tug'ilgandan so'ng, oziq-ovqat miqdorini asta-sekin oshirib borish, iste'mol oziquqa miqdori ko'paymasa, ozuqani berish sonini ko'paytirish, kabi choralar ko'riladi. Cho'chqa bolasini sutdan ajratib, oziqlantirishni tugatgandan so'ng, ona cho'chqaning jismoniy holatiga e'tibor bergan holda, ozuqani moslashtirish lozim.

Erkak cho'chqalarning (ko'paytirilgan cho'chqalar) urug'lari (sperma) sonini va sifatini tekshirish uchun urug' testlaridan foydalaniladi. Tabiiy juftlash orqali ko'paytirishda, urg'ochilar bilan solishtirganda, tana o'lchamida katta farq bo'lmasligi uchun tana kattaligi o'sishini bostirish uchun oziqlantirishni boshqarish lozim.

2 Sut emizish va nasldor cho'chqalar

cho'chqa bolalarini emizish davrida va sutdan ajratilgandan so'ng baxtsiz hodisalar ko'rsatkichi yuqori bo'ladi. Rivojlanib ulgurmagani bilan tug'ilgan cho'chqa bolalari, organizm immunitetini va ovqat hazm qilish qobiliyatini tezda moslashtiradi va sutdan ajratilganda, u tez o'sib, tug'ilishdagidan 6 baravar ko'proq vaznga yetadi. Shuning sababli, tana muvozanatni yo'qotish oson bo'lishi mumkin. Agar cho'chqaning dumi pastga osilib qolsa, o'zini yaxshi his qilmayotgan bo'ladi. Sog'lom cho'chqalar ko'zlaridan suyuqlik ajralmaydi, burunlari o'rtacha namlangan, dumlari jingalak, juni yaxshi holatda bo'ladi.


Cho'chqa bolasi tug'ilgandan so'ng, darhol ona cho'chqasidan yetarli miqdorda sut (og'iz suti) bilan oziqlanishi lozim. Og'iz suti - bu tug'ilgandan so'ng, darhol beriladigan, ikkinchi kungacha bo'lgan ona sutidir. Birinchi sut tarkibida, turli kasalliklarga qarshi antikorlar (immunoglobulinlar) mavjud bo'lganligi sababli, uni iste'moli, tashqi kasalliklarga chidamlilikni paydo qiladi.

Bundan tashqari, agarda, qondagi qizil qon hujayralari uchun ozuqa bo'lgan temir moddasi yetarli bo'lmasa, zarur bo'lsa, temir moddasini oshiruvchi preparatlari qo'llaniladi.

Tug'ilgandan bir necha kun o'tgach, emizish jarayoni ham bir vaqtda, qisqa vaqt ichida boshlanadi. Odatda, kuniga taxminan 24 marta emiziladi. Ona cho'chqa sog'lig'i va emizishi, cho'chqa bolalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Tug'ilgandan so'ng, taxminan bir hafta o'tgach, ona sutidan tashqari, qattiq turdagi ozuqa (sun'iy sut)ga moslashish uchun beriladi.

Cho'chqa bolalarini sutdan ajratish odatda, tug'ilgandan 3-4 hafta o'tgach, amalga oshiriladi. SEW, deb ataladigan erta sutdan ajratish holatlari ham mavjud, ammo ikki haftadan kamroq vaqt ichida sutdan ajratish ona cho'chqaning qayta hayz ko'rishi va urug'lanish tezligiga salbiy ta'sir qiladi.

Sutdan ajratilgandan so'ng, ozuqa sifatda "A" sun'iy sut beriladi, lekin sutdan ajratishgacha, bir necha kun davomida boqish uchun sun'iy ozuqa ham aralashtiriladi.



Cho'chqa bolalarining rivojlanishi va ko'paytirishni boshqarishga misollar

3 Bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarni saqlash ob'yektlari va jihozlari

Odatda, cho'chqalar 10 bosh yoki undan ortiq sonda guruhlarda (podada) boshqariladi. Bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqachilikda (go'sht uchun cho'chqachilik), odatda panjarasimon polga ega, cho'chqaxonalari hisoblanadi. Ko'payishi tufayli, zichlik oshgach, stress va kurashlar kelib chiqmasligi uchun bir bosh cho'chqaning 50 kg vazn og'rligiga, 0.7 m², og'rligi 100 kg cho'chqa uchun 1.0 m² joyni ta'minlash lozim. Agarda, zichlik kamayib borsa, unumdorlikka salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Umumiy qoidaga ko'ra, bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarga uzluksiz ozuqa beriladi. Ozuqa-yemi idishlari sifatida, doimiy ozuqani ta'minlab beruvchi idishlar qo'llanilib (o'zini mustaqil oziqlantirish), doimiy ravishda yemni iste'mol qila olish usuli qo'llaniladi. Cho'chqaxonalarda, ozuqa-yemi idishlari (ozuqa baklari)gacha, avtomatik oziqlantirish moslamasi bilan jihozlangan bo'ladi. Ozuqa-yemi idishlari, uzluksiz oziqlantirish uchun mos tuzilishga ega bo'lib, suyuq ozuqasi uchun suvni aralashtirib, iste'mol qila oladigan tuzilishga ega.

4 Cho'chqalar o'zlarini tutishi va cho'chqalarga qanday munosabatda bo'lish lozim

Cho'chqalar poda hayvonlari bo'lib, podalarni hosil qilish xususiyati bor. Podalarni boqishda, kuchli va zaif cho'chqalar tug'ilganligi sababli, zaif cho'chqalar yetarli miqdorda ozuqa iste'mol qilishlari lozim. Cho'chqalar, yumshoq tabiatga ega, odamlarni tanishi va odamlarni farqlash qobiliyatiga ega. Burundagi hid bilishi va quloqlarning eshitish qobiliyati, ayniqsa rivojlangan. Bundan tashqari, cho'chqalar tezda hurkib ketuvchi va harakat, tovushlarga sezgir bo'ladi. Shuning sababli, cho'chqalarga yumshoq muomala bo'lish va qo'rqitib yubormaslik lozim. Jo'natish vaqtida, cho'chqalarni stress olmasliklari uchun ularni nazorat qiling. Stress holati, cho'chqa go'shti sifatiga ham ta'sir qiladi.

Cho'chqalarni yotoq joylarini, axlat va peshob chiqariladigan, belgilangan joylaridan ajratish lozim. Qoidaga ko'ra, namligi baland bo'lgan joy, peshob chiqarish joyi hisoblanadi. Bundan tashqari, qo'shni poda cho'chqalari o'rtasida, raqobatbardosh munosabatlar mavjud bo'lganda, bir-birining chegarasi bo'lgan, panjara atrofida axlat chiqarish, odati mavjud.

5 Cho'chqa ozuqa-yemi

Тэжээл нь тооройд зориулсан хиймэл сүү, бойжуулах тэжээл, таргалуулах тэжээл гэж Ozuqa-yemi, cho'chqa bolalari uchun sun'iy sut, boqish ozuqasi va bo'rdoqiga boqish, ozuqaga bo'linadi. Kerakli oziq moddalar miqdori, cho'chqaning o'sish bosqichiga qarab o'zgargarishi sababli, har biriga mos keluvchi, ozuqa rejasi mavjud. Talab etiladigan miqdorni, ko'paytirish me'zoniga qarang. Oziq moddalarda ozuqaviylik quvvati elementlarini aniqlab olish lozim, bular (asosan uglevodlar va yog'lar), oqsillar, minerallar va vitaminlardir.

Sun'iy sut cho'chqa bolalari uchun, kukunli ozuqa bo'lib, ko'p miqdorda kukunli, yog'siz sutni o'z ichiga oladi. Bunda, sun'iy ozuqa kukuni, sun'iy sut "A", sun'iy sut "B" va boshqalarga bo'linadi hamda ushbu ketma-ketlikda, 15 kg gacha bo'lgan vazndagi cho'chqalarni oziqlantiradi. "A" sun'iy suti, erta sutdan ajratish davriga, "B" sun'iy suti esa, kech sutdan ajratish davriga to'g'ri keladi. So'ngra, cho'chqa bolalarini, tarkibida ko'p miqdorda makkajo'xori bo'lgan boquv ozuqasi, bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarning boshlang'ich faza ozuqasi va keying faza ozuqasi bilan boqiladi. Cho'chqalarni boqishda so'nggi faza tarkibida, antibakterial ozuqa qo'shimchalari bo'lmasligi lozim.



Sun'iy sut



Semirtiruvchi ozuqa

6 Ozuqa-yem xarajatlarini kamaytirishda tadbirkorlik jihatlar


Cho'chqachilikda, ozuqa sotib olish xarajatlari yuqori bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarining 60-70% ni tashkil qiladi. Shu sababli, yaqin atrofda, arzon narxlarda olinadigan ozuqa masalliqalaridan foydalangan holda, ozuqa xarajatlarini kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Oddiy misol - oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish vaqtida, hosil bo'lgan oziq-ovqat qoldiqlari, bo'lishi mumkin. Shu vaqtda, oziqlanish rejasiga e'tibor berish lozim. Ayniqsa, ozuqaning yog'liqligi yuqori bo'lsa, go'sht sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Yapon naslchilik me'zoniga asoslanib, cho'chqaning o'sish bosqichiga qarab, zarur miqdordagi ozuqaviy komponentlar aralashtiriladi va oziqlantiriladi. Xususan, ozuqaviylik quvvati bilan (TDN yoki DE) proteinli ozuqasini muvozanatlashtirilib, kaltsiy va fosfor kabi minerallarning yetishmasligiga e'tibor bering.

7 Bo'rdoqiga boqish davri yoki vazn ortishi va ozuqa miqdori

Jo'natilishigacha, tana og'irligi 30 kg dan 110 ~ 120 kg gacha bo'lgan bo'rdoqiga boqish davrida, ozuqa iste'moli ortishi bilan tana vazni ham tez ortadi. Agarda, 50 kg dan oshsa, kuniga 2 kg dan ortiq yem iste'mol qilishi va oxir-oqibat 3 kg dan ortiq ozuqa iste'mol qilishi mumkin. Ushbu davrda, kunlik vazn ortishi 0,85 kg ni tashkil qiladi.

Oziqlantirish vaqtida, cho'chqa bolalari, ona cho'chqasi ostida qolib ketib, ezilib o'lib qolgan, ko'plab baxtsiz hodisalar mavjud. Ona cho'chqani bu holat ajablantirmasligi tabiiydir, lekin quyidagi uchta jihatga e'tibor berib, uni nazorat qilish mumkin.

- Ona cho'chqaning oziqlanishi yetarli darajada nazorat qilinmaganligi tufayli, emizishda sutning kamligi uchun cho'chqa bolalari, ona cho'chqadan uzoqlashmaydilar.
- Ona cho'chqaga, suv ichish qiyin bo'lgani uchun u qayta-qayta o'rnidan turadi va uxlaydi.
- Cho'chqa bolalariga issiqlik darajasi yetarli bo'lmaganligi uchun cho'chqa bolalari ona cho'chqa tana haroratiga ehtiyoj sezib yopishadilar va uxlaganda, ona cho'chqa tagida ezilib, nobud bo'ladilar.

2 Cho'chqa bolalarini boqish vaqtida isitish haqida

Cho'chqalar uchun tana harorat yuqori bo'lishi va tana haroratini tartibga solish qobiliyati hali rivojlanmaganligi uchun yetarlicha isitish kerak. Tana harorat oralig'i, o'sish bilan o'zgarganligi sababli, har safar mos keladimi yoki yo'qligini baholash lozim. Tug'ilganda muqobil harorat 36°C, 1 haftadan so'ng 30°C, 2 haftada 28°C, 3 haftada 26°C bo'lib, asta-sekinlik bilan pasayib boradi. Agarda, cho'chqalar to'g'ridan-to'g'ri isitgich ostida, bir-birining ustiga qo'yilsa, u sovuq hisoblanadi. Boshqa tomondan, agar siz isitgichdan uzoqda qo'ysangiz, u issiq deb baholanadi. Cho'chqalarni mos ravishda, tarqoq holda saqlanadi.

Issiqlik moslamalari bilan ishlashda, ehtiyot bo'lish lozim. Cho'chqachilikda, sodir bo'lgan yong'in hodisalarining aksariyati, isitgichning yiqilishi va isitgichdan yong'in chiqishi natijasida sodir bo'ladi.

	Tug'ilgandan so'ng yosh ko'rsatkichi, tana vazni	Tegishli harorat
Cho'chqa bolasi	Tug'ilgandan 1-3 kun o'tgach	30-32°C
	4-7	28-30
	8-30	22-25
	31-45	20-22
Go'sht uchun mo'ljallangan cho'chqa	15-50kg	20-25
	50-100	18-20
Voyaga yetgan cho'chqa	100kg yoki undan ko'p	15-18

Cho'chqalar uchun muqobil harorat oralig'i

3 Cho'chqa bolalarini nazorat qilish bo'yicha, ehtiyot choralari

Cho'chqa bolalari kasalliklarga moyil bo'lib, ko'pincha oshqozon-ichak anomaliyalarini (diareya) va nafas olish anomaliyalarini (pnevmoniya) kelib chiqadi. Bundan tashqari, ona cho'chqalaridan o'tgan parazitlar, o'sishni sekinlashtiradi, shuning uchun ona cho'chqalaridagi parazitlarni, pazardazitlarga qarshi vositalar bilan tozalash, emlash onalar va bolalar cho'chqalarida amalga oshiriladi.



Cho'chqa bolalarini boqish

4 Cho'chqa bolasini axtalashda, ehtiyot choralari

Erkak cho'chqa bolalari axtalanadi, keyin esa bo'g'iladi. Bu erkak hidining cho'chqa go'shtiga, o'tishiga yo'l qo'ymaslikdir. Axtalash, tug'ilgandan keyin bir necha kundan boshlab, sutdan ajratishgacha amalga oshiriladi, lekin ko'pincha bir hafta davomida amalga oshiriladi.

5 Cho'chqa naslchiligida hayz, juftlashish, tug'ruq vaqtida, yodda tutish kerak bo'lgan jihatlar

Hayz, cho'chqa bolalarini sutdan ajratilgach, ko'p vaqt o'tmay yana qaytariladi. Hayz tsikli, 21 kunni tashkil qiladi va individual farqlar mavjud bo'lsa-da, u 2 dan 3 kungacha davom etadi. Hayz belgilari, minish, ishtahani yo'qotish, dumini ko'tarish, jinsiy organlarning shishishi va shilimshiqlik kuzatiladi. Jinsiy organ lablari, hayz davrining boshida, shishib ketgandan aniqlanadi va u qizg'ish rangga kirganda, mos keladigan juftlash vaqtida, juftlashtirish amalga oshiriladi. Juftlashishda, urug'lanishning eng yuqori ko'rsatkichi, hayzning 10~25 soatdan so'ng, deb hisoblanadi. Naslchilik cho'chqasi, hayz davriga kirganda, cho'chqaning orqa va belini ikki qo'l bilan bosib, orqa bosim reaksiyasi testi o'tkazilganda, tinch holatda bo'ladi. Shuningdek, erkagi yaqinlashganda, urg'ochi cho'chqa minishga ham ruxsat berib, harakatsiz va jim bo'lib, quloqlarini ko'taradi. Hali tug'magan cho'chqalarda, hayzning noaniq belgilari bo'lishi mumkin.



Hayzning tasdiqlanishi



Jinsiy organning qizarishi va shishishi
(Sur'at: chorvachilik milliy markazidan olingan)

(1) hayzning birinchi bosqichi: 2.7 kunda, jinsiy a'zolarning qizarishi va shish paydo bo'lishi

(2) hayz: 2.4 kunda, erkak cho'chqani qabul qilinishining boshlanishi va tugashi

(3) kechki hayz: 1.8 kunda, jinsiy a'zolarning qizarishi va shishning qaytishi

(4) hayzning to'xtashi: 14.1 kunda

Hayz davri uzoq bo'lganligi sababli, cho'chqalarda yuqori urug'lanish darajasi bo'lganligi sababli, bitta urg'ochi cho'chqani hayz vaqtida, tabiiy yoki sun'iy ravishda, 2 marta urug'lantirishga harakat qilinadi. Homiladorlikning tasdiqlanishi 21 kundan keyin, hayzning takrorlanmasligi bilan yoki homiladorlik diagnostikasi qurilmasi bilan aniqlanadi. Homilador bo'lganida, ko'plab cho'chqalar bosiq bo'lib qolib, ishtahani oshiradi.

Tug'ruqxonasiga, cho'chqalarni o'tkazishdan avval, ularni tozalash, dezinfektsiyalash va quritish kerak. Cho'chqalarning tug'ishi oson va kamdan-kam hollarda, tug'ruq vaqtida qiyinchilikka uchraydi. Bundan tashqari, agar cho'chqa bolasi nafas olmasa, sun'iy nafas oldirilishi kerak.

Erkak cho'chqaga ruxsat berish davri	Urug'lanish darajasi	hayzning birinchi bosqichidagi kunlar	Jinsiy a'zoning qizarishi va shishishi
Hayzning birinchi bosqichi	vaqt	0	1 kun
		10	2 kun
		25	3 kun
		36	4 kun
		48	5 kun
		72	6 kun
		72	7 kun
Hayz (erkak cho'chqaga ruxsat berish) davri	%		Eng yaxshi
	81	Juftlashning muqobil vaqti	
	100	Ovulyatsiya davri	
	46		
	50		
	0		

Hayz bilan bog'liq bo'lgan vulva belgilari o'rtasidagi bog'liqlik va o'z vaqtida juftlash (urug'lantirish) (tabiiy juftlash va suyuq urug'lik bilan sun'iy urug'lantirishda)

6 Issiq vaqtda, qarshi ehtiyot choralari

Cho'chqa bolalari sovuqqa chidamsiz, o'sib, semirgan cho'chqalar, semiz va nasldor cho'chqalar issiqlikka chidamsizdir

Cho'chqalarni semirtirish, cho'chqalarni boqish uchun mos ko'paytirish muhiti taxminan 20°S ni tashkil qiladi. Har xil muqobil harorat diapazoniga ega bo'lgan cho'chqa bolalari va nasldor cho'chqa bolalari (ona cho'chqalar) tug'ilishdan oldin va keyin yuqori harorat ta'sirida bo'lsa, cho'chqa balalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Issiqlik havoda, ayniqsa, polga yaqin joyda ventilyatsiyani saqlab turish uchun majburiy shamollatish ventilyatori tomonidan, amalga oshiriladi. Bu cho'chqa tanasini sovutib va namlikni olib tashlashga qilinadi. Na'muna sifatida, shamol tezligi 1,0 m / sek yoki undan ko'p bo'lishi kerak. Cho'chqaxonadagi shamol yo'nalishi, ma'lum bir yo'nalishda bo'lishi

uchun ventilyatsiya yo'nalishini ehtiyotkorlik bilan tartibga solish lozim. Havo ta'minoti issiq bo'lsa va shamollatish effekti past bo'lsa, sovuq havo moslamasi yordamida kanalli ventilyatsiyadan foydalanish mumkin. Yaponiyada yozda, issiq va nam muhit, Evropa va Qo'shma Shtatlardagi yozda, issiq kuchliroqdir, shuning uchun ko'pincha chet-elda issiqlikni boshqarish texnologiyasidan foydalanib bo'lmaydi.

7 Ohir (ozuqa idishi), ichimlik suvini boshqarish

Asosan, bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalar, doimiy ravishda oziqlanadi. Ozuqani doimo, ohirda(ozuqa idishi) saqlash lozim. Cho'chqalar ovqatlanayotganda, suv qo'shiladigan suvli oziqlantiruvchilar bo'lsa, qolib ketgan ozuqani buzilishidan ehtiyot bo'lish lozim. Qushlarning bostirib kirishini oldini olish uchun ozuqani o'lchab qo'yish va kalamushlarni muntazam ravishda yo'q qilish lozim. Suvdan, erkin ichishga ruxsat bering. Suv bosimiga qarab, suv moslamalarining bosib chiqariladigan va tomchilab tushadigan turlarida, kerakli miqdorda, yetarli darajada suv olish imkoni bo'lmasligi mumkinligiga, e'tibor berish lozim.

8 Yemni saqlash va qayta ishlash bo'yicha, ehtiyot choralari

Yemni iloji boricha salqin va qorong'i joyda saqlash va yuqori harorat, yuqori namlik muhitidan saqlash lozim. Xususan, sun'iy sut yomon bo'lib qolishga moyil, shuning uchun uni tez-tez ishlatib tugatish lozim. Mog'orlangan yem bilan oziqlantirmang. Uni omborda saqlash orqali sichqonlar, qushlar va hasharotlar tomonidan ozuqaga zarar yetkazilishini oldini olish zarur.

9 Cho'chqaxona muhiti va gigiyenani boshqarish

Cho'chqaxonalar uchun gigienik muhitni yaratish, nafaqat cho'chqa kasalliklarini oldini olish va sog'lig'ini saqlash, balki ishchilarning sog'lig'ini saqlash uchun ham muhimdir. Cho'chqaxonalarda, gigiyenik muhitni saqlash, ishchilar uchun ish muhitini saqlashdir. Cho'chqaxonalarning gigiyenasini boshqarish, ozuqaa-yemi gigiyenasi va atrof-muhitning ifloslanishining oldini olish nuqtai nazaridan muhimdir.

Cho'chqachilik hududini va boqish hududini ajratishdan maqsad, cho'chqaxonadagi oqimni bir tomonlama qilishdir. Tashqaridan olib kelingan, nasldor cho'chqalar, karantin cho'chqaxonasida bo'ladi. Umumiy rejaga asoslanib, bo'rdoqi cho'chqaxonalarni, tashqi muhitga qaragan joyga joylashtiriladi, hatto patogenlar bostirib kirsam ham, cho'chqalar zarar ko'rmaydi.

Cho'chqa kasalligining belgilari turli shakllarda bo'lishi mumkin. Kasallikning biron bir alomati bo'lsa, darhol cho'chqachilik fermasida veterinarga xabar berish va qaror qabul qabul qilish lozim.

1 Boqish uskunasini boshqarish

(1) Haroratni nazorat qilish

Yangi tuxumdan ochib chiqqan jo'jalar, kichik tanaga ega, tana harorati past va atrof-muhit haroratiga javob berish qobiliyati zaif bo'lib, uni o'sishi uchun issiqlik bilan ta'minlash lozim. Parrandachilik uyining uslubida (ochiq parrandachilik yoki oynasiz parrandachilik uyi) va boqish uylari usulida (batareyali qafas, soyabon tipidagi seleksioner va polni isituvchi) qay birida bo'lmasin, yosh jo'jalar holatini kuzatib borilib, kirish vaqtida haroratni asta-sekin 32 ~35 °C gacha pasaytirib, 3-4 haftadan keyin xona haroratida yashashi uchun uni iqlimga moslashtiring va keyin issiq haroratni to'xtatish lozim.

(2) Namlikni nazorat qilish

Yangi tuxumdan ochib chiqqan jo'jalar, asta-sekinlik bilan namlik 65 % bo'lgan muhitdan, ichki namlikka moslashadi. Kirish vaqtida 65 % namlikni 35 °C da ushlab turish uchun har qanday isitish qurilmasiga, idishda suv qo'yib namlash kerak. Biroq, taxminan bir hafta o'tgach, najas miqdori ko'payadi va najasdan bug'langan suv miqdori ko'payadi, shuning uchun suv in'ektsiya miqdorini mos ravishda kamaytirish lozim. Aksincha, suvni taxminan 10- kundan boshlab quritish lozim.

(3) Shamollatishni boshqarish

Har qanday o'stirish xonasining harorati yuqori bo'lsa, xona haroratidan, farqi bo'ladi, shuning uchun shamollatish tabiiy ravishda sodir bo'ladi, lekin ortiqcha shamollatish, o'stirish xonasi ichidagi haroratni pasaytiradi. Jo'jalarning holatini kuzatayotganda, issiqlik izolatsiyasi bilan uyg'unlikka e'tibor bering.

2 Oziqlantiruvchi va suv dispenserini boshqarish


(1) Yosh jo'jalar

Hatto batareyalili qafas yoki o'stirish qafasi bo'lsa ham (xavfsiz to'siq ichida), kirishda oziqlantirishni yaxshilash uchun oziqlantirish qutisida (tekis va past qirrali) oz miqdorda, oldindan boshlang'ich ozuqa moslamasidan, miqdori kam-kamdan berilish soni ko'p, sohib qo'yib oziqlantirish lozim. Suv dispenseridan, ichishni osonlashtirish uchun suv idishi va mustahkamlanadigan idishdan foydalanish lozim. Oziqlantiruvchi va suv dispenserini bir-biriga yaqin tutish lozim, chunki yosh jo'jalar, tez-tez ovqatlanadilar va suv ichadilar.


Agar harorat to'g'ri tartibga solinsa, (kirishda, harorat yoqilganda asta-sekin 32~35 °C dan keyinchalik pasaytirib boriladi), jo'jalar kunlar o'tishi bilan harorat ta'minoti qismidan,

xona harorati bo'limiga o'tib, oziqlanadilar va suv ichadilar. Oziqlantirishdan so'ng, 2 kundan keyin xona haroratida (batareyali xona turi bo'lsa, sayir qilish joyi va tekkis joyda ko'paytirish turi bo'lsa, xavfsizlik to'sig'i ichida, issiqlik manbasidan uzoqda joylashgan qismda) yem va ichimlik suvini tayyorlash lozim. Jo'jalarning ko'pchiligi, xona haroratida ovqatlana boshlaganda, harorat ta'minoti qismida ovqatlanish va sug'orishni to'xtatish kerak.

Yosh jo'jalar, doimo ozuqa va ichimlik suvi bilan ta'minlangan, erkin ovqatlanish va suv ichishlariga ruxsat beriladi. Oziqlantiruvchiga qo'yiladigan ozuqa miqdori, taxminan yarmi bo'lishi kerak va oziqlantirish paytida ozuqa to'kilmaligi kerak. Jo'jalar oziqlantiruvchiga kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun soyabon yoki ajratgichni biriktirganingizga ishonch hosil qilish lozim. Ichimlik suvi, doimiy ravishda to'ldiriladi, lekin suv idishi sifatida, suvni saqlaydigan qo'ng'iroq shaklidagi suv dispenserida yem va najas aralashib ketganligi tufayli, uni kuniga bir marta tozalash va almashtirish kerak. Tomchilab sug'oriladigan suv moslamasi, gigiyenik hisoblanadi, sababi jo'jalar to'g'ridan-to'g'ri, so'rg'ich uchidagi suv tomchilariga qarab, suv ichishadi. So'rg'ichli suv moslamasi ham, qo'ng'iroq shaklidagi suv dispenserida ham jo'janing o'sishiga qarab, balandligi va suv darajasini moslashtirish lozim.



Xavfsizlik to'sig'i



Xavfsizlik to'sig'i himoyasidagi, oziqlantiruvchilar va suv dispenserlarini joylashtirish

(2) O'rta va katta davr

① Oziqlantiruvchi boshqaruvi

Bu davrda, oziqlanish joyi yetarli bo'lmaydi, shuning uchun batareyali katak, sayr qilish hududiga o'tkaziladi, tekkis joyda xavfsizlik to'sig'i bilan kengaytiriladi va oziqlantiruvchi idish yordamida to'ldiriladi. So'ng, batareyali turidagi qafasning

yon tomoniga, quvur tipidagi oziqlantiruvchi o'rnatiladi va qafas yuzi ochiq holda, ovqatlanishga yo'naltiriladi. Tekkis joyda boqish turida, himoya to'sig'i olib tashlangan vaqtga qadar, bak ko'rinishidagi oziqlantiruvchi ishlatiladi va oziqlantirish tasmasi bo'lgan tovuqxonalarda, qo'lda oziqlantirishdan, asta-sekin avtomatik oziqlantirishga o'tkaziladi. Avtomatik oziqlantirish - bu oziqlantirish tasmasi, quvurlar bilan o'tkazilgan oziqlantiruvchi bo'lib, batareyali boqish xonasida, quvur tipidagi oziqlantiruvchida, tekkis joyda ko'paytirish turida esa likopcha ko'rinishidagi oziqlantiruvchi idishda beriladi (likopcha shaklida).

Jo'jalarning o'sishi va oziqlanish holatini kuzatib, oziqlantiruvchi balandligini va quvur yoki idishdagi oziq-ovqat miqdorini sozlash kerak. Avtomatik oziqlantiruvchining ozuqa tepsisi, ozuqani bir tekkisda berishi va jo'jalar oson ovqatlanishi muhimdir. Batareya qafas turida, jo'jalar oziqlantiruvchi ichiga (quvur) kirmaydi, lekin tekkis joyda o'stirish turida, jo'jalar oziqlantiruvchi ichiga kirmasligi uchun soyabon, separator, spiral va boshqa yechimlarni o'ylab topish kerak.

② Suv dispenserini boshqarish

Sayr hududi yoki himoya to'sig'i kengayishi yoki olib tashlanishi bilan suv dispenserlari sonini ko'paytirish va ularni bir tekkis joylashtiriladi. Sorg'ichli suv moslamalarining sonini hisobga olgan holda, ko'krak qafasining balandligiga mos ravishda, jo'janing ko'rish chizig'idan bir oz balandroq bo'lishi kerak va suv bosimi uni ichish uchun qulay bo'lishi uchun sozlanishi kerak. Tekkis joyda ko'paytirish turida, qo'ng'iroq shaklidagi suv dispenserini plastinkasining joylashuvi, jo'ja ko'kragining balandligi bilan mos kelishi kerak. Broylerlar uchun esa, ayniqsa, urg'ochi jo'jalarga mos keladigan tarzda sozlanish zarur. Ichimlik suvi miqdori ortib borayotganligi sababli, suv ta'minoti uskunasini (suv ta'minoti qurilmasi, suv ta'minoti trubkasi, pastki idish va boshqalar) boshqarish va uni muntazam yuvish muhimdir.

3 Tumshuqni (kesish)kaltalash

O'sish davrida, jo'jalarda ko'pincha dumbani cho'qish kuzatiladi. Jo'jalar kichik bo'lsa-da, dumba atrofida tirnashlar paydo bo'lib, yangi tuxumdan ochib chiqqan jo'jalarda, zararlanish ichakgacha yetib boorish hollari mavjud. Ushbu zararlarni oldini olish uchun tumshug'ini kaltalash, odatiy holdir.

Yuqori va pastki tumshuqlardan, tumshug'i s(kaltalash mashinasi) yordamida kesiladi, tuxum qo'yuvchi tovuqlarda esa ko'pincha, 3~10 kunligida amalga oshiriladi. Broylerlar bir kunlik yoshda yoki imkon qadar erta amalga oshiriladi, lekin inkubatorida ham amalga oshirilishi mumkin.

Tumshuqning kaltalanishi, yomon odatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va to'killadigan ozuqa miqdorini kamaytiradi. Voyaga yetgan tovuq bo'lganidan so'ng, ovqatlanish tufayli tuxum yo'qotilishi kamayadi.



Tumshuqni kaltalash (Debeek) holati

4 Og'irlikni o'lchash

Tana vazni, tuxum qo'yuvchi jo'jalarning rivojlanishi va keyinroq tuxum qo'yish qobiliyati ko'rsatkichidir, shuning uchun ularni har 1~2 haftada, tasodifiy tanlash orqali o'lchanadi. Bundan tashqari, broyler jo'jalarini jo'natishni rejalashtirishda, go'sht uchun mo'ljallangan jo'jalarining tana vazni ortishi uchun oziqlantirish muhimdir.

Oziqlanishning to'g'ri ekanligini bilish uchun tuxum qo'yish boshlanganidan so'ng, har to'rt haftada bir marta tortish va tana vaznining o'zgarishini tekshirish kerak. Voyaga yetgan tovuqlarni alohida o'lchash lozim.

5 Yemni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha, ehtiyot choralari

(1) Yemni qabul qilish

Ozuqa idishi yoki ombori, ozuqa keltirilgunga qadar tozalanadi va yem-xashak mashinasi, fermaning kirish qismida, to'g'ri dezinfeksiya qilinishi lozim. Ozuqaning tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi va sifati bo'yicha hech qanday qoidabuzarlik bo'lmasligi, begona moddalar bo'lmasligi, ozuqani salmonella parazitlariga muntazam tekshiriladigan, zavoddan bo'lishi va tekshirish natijalari ilova qilingan bo'lishi zarur. Shuningdek, omuxta ozuqasining nomi yoki ozuqa qo'shimchasi tarkibiy qismlari nomi va jo'natishda amal qilish muddatini bilish ham muhimdir.

(2) Yemni saqlash

Yem sotib olish rejasi, oldindan belgilangan va uzoq muddatli inventarizatsiyadan qochish uchun ehtiyot bo'lish kerak.

Ozuqa mog'or bilan ifloslanmagan, ozuqa tarkibiy qismlari (oqsillar, lipidlar va boshqalar) o'zgarmasligi (buzilmasligi), vitaminli premiks kabi qo'shimchalar (agentlar) salqin va qorong'i joyda saqlanishi kerak. Bundan tashqari, saqlash joyida kalamush yoki

kalamushning axlati topilmasligi muhimdir.

(3) Yem bilan ishlash

Yem-xashakni to'g'ri rejalashtirish uchun yem-xashak tarkibiy qismlari aniqlangan bo'lib, fermada ozuqa qo'shimchalarini qo'shganda, ularni yemga bir tekis aralashtirilishi va ozuqaning ishlatilishi, o'lchamiga qarab, berilishi muhimdir. Xususan, oziqlantirishdan keyin haftalik oraliqlarda, vaznni o'lchash orqali tovuqning o'sishi va tuxum qo'yish bosqichiga qarab, ozuqa rejasi (ozuqa tizimi) bo'yicha turli xil yemlar berish mumkin. Bundan tashqari, tovuq mahsulotlari (tuxum, go'sht) sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ozuqa qo'shimchalarini berishni cheklash va ozuqa sifatiga e'tibor berish (tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi, mog'orlanishi, o'zgarishi va boshqalar), muhim hisoblanadi.

Oziq-ovqatlarni boshqarish bo'yicha, qaydnoma daftari, kamida 2 yil davomida saqlanishi kerak.

6 Issiq havo vaqtida boshqaruv

Yozda, tuxum qo'yadigan tovuqlarning ochiq parrandachilik uyida ba'zi tovuqlar hatto 32 ~33°C gacha bo'lgan tashqi haroratda ham issiqlikdan nobud bo'lishi mumkin. Tomlar va devorlar quyosh nurlari bilan qiziydi va oqibatda ichki harorat, tashqi haroratdan 5 °C yoki undan ko'proq ko'tarilishiga olib kelishi mumkin hamda tovuq tanasi atrofidagi harorat, yanada yuqori bo'ladi. Shuning uchun, issiqlikdan himoya qilish choralari talab qilinadi. Ochiq parrandachilikda, parrandachilik uyi ichidagi ventilyatsiyani yaxshilash va shamol tarqalib ketmasa, shamol tezligini 0,5~0,8 m / sek gacha qilish lozim. Tikka quyosh nurlaridan qochish uchun daraxtlar bilan soya yaratish muhimdir. Haroratni pasaytirishda, parrandaxona ichiga suv purkash ham samarali hisoblanadi. Parrandachilik uyidagi harorat ko'tarilganda, ichimlik suvining harorati ham ko'tariladi va iliq ichimlik suvi ichilmay qoladi, shuning uchun iloji boricha, sovuq qilib berish lozim.

Oynasiz parrandachilik uyida, parrandaxona ichidagi harorat imkon qadar bir xil va tashqi havo haroratidan past bo'lishi uchun shamollatish usulini o'ylab topish kerak. Odatda, u havo aylanishini oshiradi va tovuqlarning sezgir haroratini pasaytiradi. Shift va devorlarning issiqlik izolatsiyasi sifati bunga ta'sir qiladi va issiqlik izolatsiyasi qanchalik yaxshi bo'lsa, tashqi havo haroratining ta'siri kamroq bo'ladi.

Broylerlar uchun yozgi issiqlikdan himoya qilish, muhim nazoratni talab qiladi. Shamollatish, jo'jalar uchun hayotiy muhimdir. Shuning uchun, issiq havoda, shamollatgich quvurlari ulanadi va havo to'g'ridan-to'g'ri binoga yuboriladi. Bundan tashqari, kun davomida issiqlikning eng yuqori cho'qqisida, suv sepiladi va bug'lanish issiqligi bino ichidagi haroratni pasaytiradi. Issiqlik tufayli, issiq urush sababli nobud bo'lgan jo'jalar asosan, jo'natish oldidan ko'proq sodir bo'ladi. O'sha vaqtda, tovuq tanasi atrofidagi harorat, xona haroratidan taxminan 5 °C ga yuqori bo'ladi. Issiq urushi, to'satdan sodir bo'ladi, shuning uchun issiq kunlarda, erta choralari ko'rish kerak.

7 Sovuq havo vaqtida, boshqaruv

Ochiq parrandachilik uylarida, sovuq shamolning esmasligi uchun to'siqlar bilan sovuqqa qarshi, choralar ko'rish lozim. Shamol urushini oldini olish uchun ularni yopish lozim. Oynasiz parrandachilik uyida, shamol hajmini kamaytiradi, ammo shamol urushiga olib kelmaslik uchun ehtiyot bo'lish lozim.

8 Tovuq salomatligini nazorat qilish

Boqilayotgan tovuqlarni dumba dog'lari, zaif oyoqlar, anormal nafas tovushlari, g'ayritabiiy yurish va g'ayritabiiy klinik belgilarini kuzatish muhimdir. Harorat, namlik va ventilyatsiya, tovuq turlarining naslchilik yoshiga qarab, shamollatish jarayoni, parranda yoshi va harorati (xona harorati), ko'paytirish hududi mos ravishda, ta'minlanishi kerak.

Ish boshqaruvchi, har kuni ko'paytirish xonasini, g'ayritabiiy va o'lik tovuqlar yo'qligini kuzatishi, harorat, namlik va ventilyatsiyani o'lchashi, ozuqa va ichimlik suvi to'g'ri berilganligini, boshqaradi.

9 Tuxumlarni yig'ishdan so'ng, jo'natish

Tuxum deyarli, ertalab qo'yiladi. Tuxum yig'ish → saralash → tekshirish → yuvish → jo'natish ishi kabi bosqichlardan iborat bo'lib, tuxum yig'ish parrandachilik fermasining ko'lami va ob'ektidan qat'iy nazar amalga oshirilib, avtomatik tuxum yig'uvchilar, avtomatik saralash va tuxum yuvish mashinalari kabi mashinalar o'rnatilganligiga qarab, mehnat turini, mexanik ish va qo'lda ishiga, bo'lish mumkin.

Tuxumlar bir-biri bilan to'qnashmasligi va tovuqlar tuxumga zarar bermasligi (tuxum iste'mol qilish odati) yoki ifloslanmasligi (dumning ifloslanishi) uchun darhol, tuxumni yig'ib olish, muhimdir. Yoriqlar bo'lgan, nuqsonli tuxumlarni olib tashlash, tuxum tovoqlariga tuxum yig'ish va ularni konteynerlarda jo'natish, odatiy holdir. Fermada tuxumni yuvish va saralash (standart vazn bo'limi), qadoqlash, qutilarga solish va uyga yetkazib berish, to'g'ridan-to'g'ri sotish kabi turli usullar mavjud. Oqimli yig'ish lentasi- tuxum yig'ish parrandachilik uyiga ulagan, GP markaziga (tuxum yig'ish, saralash, tuxum yuvish, qadoqlash inshooti) ulangan tizimdir.

Yuk tashishdan avval, tuxum parrandaxonadan uzoqda saqlanadi va tashqi harorat bilan solishtirganda, tuxumda kondensatsiya hosil bo'lmasligi uchun saqlash joyining harorati nazorat qilinadi. Saqlash muddatini iloji boricha qisqa bo'ladi.

Ishchilar, ish boshlashdan avval, barmoqlarini tozalaydi va dezinfektsiya qiladi. Yuvilgan va dezinfektsiyalangan tuxum yig'ish savati, tuxum tepsisi va tuxum idishidan foydalaniladi. Tuxum yig'ish moslamasi, mashinasining normal ishlashini nazorat qilish va tegishli tayyorgarlik ko'rish lozim. Tuxum yig'uvchilar va mashinalar, muntazam ravishda, tekshiriladi, tozalanadi va dezinfektsiya qilinadi. Qo'lda yig'ilgan tuxum bo'lsa, ularni yangi holatda saqlash uchun kuniga, imkon qadar ko'p marta tuxum yig'iladi.

10 Go'sht uchun yosh tovuqlarni (broyler) jo'natish

Jo'natishdan avval, 7 kun davomida dori vositalaridan dam oldirilishini (antibakterial moddalarni o'z ichiga olmagan ozuqani berish) ta'minlash lozim. Ko'paytirish vaqtida, antibakterial moddalarni qabul qilsa, tashish cheklovi muddati tugaganiga ishonch hosil qilinishi lozim. Yoritish ishlari, jo'natilishdan oldin 7 kundan boshlab, 24 soat davomida, yoritiladi. Oziqlantirish, rejalashtirilgan ishlov berish vaqtidan, 12 soat oldin (oziqlantirishni to'xtatish) to'xtatiladi. Jo'natish vaqtiga ko'ra parrandalarni ovlash boshlanadi, ammo ozuqa qoldiqlarini yopishib qolganligini tekshirib tana yuzasi sezilarli darajada ifloslangan tovuqlarni tovuqlarni chiqarib tashlaymiz, sog'lom va toza tovuqlarni jo'natiladi.

11 Inshoot va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va gigiyenani boshqarish

Parrandachilik inshootlari, yem-xashak saqlash, kompost saqlash, chiqindi saqlash va yordamchi inshootlar bo'lib, ular tovuqlarni gigiyenik jihatdan parvarish qilish imkonini beradigan ko'rinishda, tashkil etilishi, muhim ahamiyatga ega. Inshootni har kuni nazorat qilish lozim, shunda u zarar ko'rmaydi yoki noqulay bo'lmaydi, chang yoki ifloslanish tufayli antisanitariya holati yuzaga kelmaydi.

① Yengil ot

1 Sog'liqni saqlashni nazorat qilish

(1) Tana harorati (rektal harorat)

Oddiy tana harorati, 37,5 ~ 38,4°C dir. Agar u 38,5°C yoki undan yuqori bo'lsa, isitma hisoblanadi.

(2) 4 ta oyoqlarini tekshirish

Oyoqlar, jarohatdan, bakterial infektsiya tufayli shishishga moyil bo'lib, bu mashg'ulotlarga xalaqit berishi mumkin. O'tlash va mashq qilishdan oldin va keyin diqqat bilan kuzatib borish va har qanday yaralarni imkon qadar tezroq davolash kerak.

2 Temirchi

- Davomiy mashg'ulotlarda, tuyoq ko'proq yemiriladi, shuning uchun tuyoqni himoya qilish uchun taqa taqiladi.
- Taqani almashtirish muddati, odatda 3 haftadan 1 oygacha.

3 Yaylovlarni boshqarish

(1) Tozalash va o'rish

Yaylovlar muntazam ravishda, tozalanadi va o'simlik balandligi qisqartiriladi.

Otlar kalta maysalarni, afzal ko'rganliklari sababli ozuqalanishi yaxshi bo'lishi uchun begona o'tlarni nazorat qilish lozim.

(2) Gigiyenani nazorat qilish

Yaylovlardan, ot go'ngini yig'ish, parazitlarning tarqalishini oldini oladi.

4 Oziqlantirishni boshqarishda, asosiy jihatlar

(1) Yetishtirish fermasiini boshqarish

- Umuman olganda, yaylovni nazorati, toychoqlar va urg'ochi otlar uchun amalga oshiriladi. Asosiy yetishtirish hududi bo'lgan, Hokkaydo, qishki harorati past va qor ko'p bo'lganligi sababli, faqat qishda, otlar faqat kunduzi o'tlaydi va boshqa vaqt otxonada saqlanadi, lekin boshqa vaqtlarda kunduzi va kechasi yaylovlarda o'tlaydilar.
- Otxonada boqilganda, konsentrlangan yem berilsa-da, emizish davrida va kech homiladorlik davrida, ozuqa miqdori oshiriladi.
- O'tlash, guruh bo'lib amalga oshiriladi, sutdan ajratilgandan keyin, urg'ochi va toylar alohida o'tlanadi.



Kunduzgi o'tlash



Kechki o'tlash

(2) Ko'paytirish fermalarini boshqarish

- Konsentrlangan ozuqa miqdorini, chavandozlik mashg'ulotlari yuklamasiga qarab oshiriladi.
- Chavandozlik mahorati yuqori bo'lgan otlar, tuyog'iga taqa taqib yuriladi, jarohat olmasliklari uchun ular podalarda emas, kichik o'ralgan yaylovlarda saqlanadi.

② Asalarichilik

1 Yillik ish tartibi (misol)

Mavsum	Oy	Ish mazmuni
Qish fasli	1	Uyadagi asalni aniqlash, uya qutisidagi haroratni nazorat qilish
	2	Uyadagi nektarni tekshirish, asalarichilik vositalarini zararsizlantirish va ta'mirlash, uyada asalarilarni tekshirish, ozuqa va dori-darmonlar bilan oziqlantirish
Bahor fasli	3	Uyadagi taxtalarni ko'paytiring, uyadagi asalarilarni tekshiring
	4	Uyadagi taxtalarni ko'paytiring, uyadagi asalarilarni tekshiring
	5	Asalni yig'ish
Yoz fasli	6	Asalni yig'ish
	7	Uyadagi haroratni nazorat qilish, ozuqa, dori-darmon berish
	8	Uyadagi haroratni nazorat qilish, ozuqa va dori-darmonlarni berish, uyada taxtasini kamaytirish, qovoq arilarni yo'q qilish
Kuz fasli	9	Oziqlantirish, uya qutilarida, taxtalarni kamaytirish, qovoq arilarni yo'q qilish
	10	Ozuqa, dori-darmonlarni berish, uyalar taxtasini saqlash, qovoq arilarni yo'q qilish
	11	Ozuqani berish
Qish fasli	12	Uyalar ichidagi haroratni, nazorat qilish

* qovoq arilar= asalarilar dushmani

2 Maxsus kiyim

Uyadagi asalarilarni tekshirishda yoki asal yig'ishda, yuz mato bilan yopiladi (yuzni himoya qiluvchi) va qo'lqop kiyiladi hamda teri ko'rinmaydigan, yorqin kiyimlarda ish bajariladi.

3 Asalarichilik uskunalari

(1) Tutun qurilmasi

Asalarilarga tutunni puflash va ularning tajovuzkorligini kamaytirish uchun ishlatiladi. Zig'ir, qog'oz va tushgan barglarni yoqish uchun ishlatiladi.

(2) Uya vositasi

Bu temir qirg'ich bo'lib, uya qutisiga yopishib qolgan, uya taxtasini ajratishda ishlatiladi.

(3) Asalari cho'tkasi

Asalarilarni, uya taxtasidan yoki uya qutisidan olib tashlash uchun ishlatiladi.



Asalarichilik ishlari holati

4 Asal ishlab chiqarish uchun uskunalar

(1) Asal pichog'i

Uya taxtasida, asal yig'ilganda, asal to'planib qolgan qismidagi asal mumini yupqa qilib kesish uchun ishlatiladigan pichoq. Issiq suv bilan isitib ishlatiladi, lekin elektr yordamida isitiladigan turi ham mavjud.

(2) Santrifuga

Bu asal to'plangan, asal taxtasini ichiga joylashtirib, uni aylantiradigan va markazdan qochma kuch bilan asalni chiqaradigan mashina.

(3) Asal filtri

Asalni santrifugadan, asal saqlovchi idishiga o'tkazishda, uya qoldiqlarini olib tashlash uchun ishlatiladigan elak.

(4) Shakar miqdorini o'lchagich


Asalda, shakar konsentratsiyasini o'lchash uchun ishlatiladi.




Santrifuga



Asal filtri




Asal pichog'i



Shakar miqdori o'lchagichi

5 Nektar ishi



Asal tayyor bo'lgunicha

6 Asalarilarning qishloq xo'jaligida qo'llanilishi

Asalarilar ozuqa uchun gullarga qo'nadilar, lekin bunda ular, gulchaglarni guldangulga olib o'tadilar. Shuning uchun, asalarilar qulupnay, qovun, tarvuz, gilos va boshqa sabzavotlar o'sadigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hududlarida qo'llaniladi.



Qulupnay gulchaglarini olib ketayotgan asalarilar



Qulupnay uyida o'rnatilgan uyalar

Xo'jalikning kundalik ishlarida, to'g'ri ish uslubini o'rganish va ishlayotganda, chorva mollarini kuzatish va boshqaruvchidan quyidagilarni o'rganish muhimdir.

1 Sigir

- Sigirlarga qanday yaqinlashish, tortib olish va bog'lash
- Sog'lom sigirlar va zaif sigirlarni ajratish usuli
- Tuyoqning holati va tuyoqni kesish usuli
- Inshoot nomi va ahamiyatini aniqlash (kompost taxtasi, silos, erkin turdagi molxona, yotoqli molxona, sog'ish xonasi va boshqalar)
- Sog'in sigirlarida, ishlatiladigan asbob-uskunalar va qurilmalarning nomlari va vazifalarini aniqlash
- Sog'ish vaqtida, gigiyena qoidalariga rioya qilish va sog'uvchi kosalarni ulash, ajratish usullari
- Najas xususiyatlarini kuzatish (oddiy najasni, ich ketish, yumshoq najasni ajratish)
- Ozuqa turi va nomini aniqlash (qattiq turdagi va konsentrlangan yem o'rtasidagi farq)
- Qattiq turdagi va konsentrlangan ozuqalarni berish, ajratilgan va aralash ozuqa (TMR) o'rtasidagi farq
- Sog'in sigirlarni alohida boqishda, qattiq va konsentratlangan ozuqani berishdagi ketma-ketlik
- Suvdon va suv dispensirlarini kundalik nazoratda asosiy jihatlar
- Hayz belgilarini kuzatish
- Qanday qilib axtalash kerak
- Qanday qilib shoxni tozalash kerak
- Buzoqni qanday emizish kerak
- Og'iz suti va oddiy sutni, qanday ajratish mumkin
- Bosqichli dezinfektsiya idishini tayyorlash va undan o'tishni usullarini kuzatish

2 Cho'chqachilik

- Cho'chqalarni qanday boshqarish lozim
- Sog'lom va sog'lom bo'lmagan cho'chqalarni qanday ajratish mumkin
- Ozuqa turi va nomini aniqlash
- Tug'ilgan cho'chqa bolasini qanday boqish kerak
- Najas xususiyatlarini kuzatish (oddiy najasni, ich ketish, yumshoq najasni, qanday ajratish mumkin)
- Axtalash usuli
- Ko'paytiriladigan va bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalar o'rtasidagi farqni farqlash


- So'rg'ichning muqobil joylashishini kuzatish va aniqlash
- Jo'natish vaqtida, cho'chqa kattaligini aniqlash
- Cho'chqa zotlari
- Cho'chqaning butun tana go'shtini kuzatish
- Bosqichli dezinfektsiya idishini tayyorlash va undan o'tishni kuzatish

3 Parrandachilik (tuxum qo'yuvchi tovuq)

- Najas xususiyatlarini kuzatish
- Ifloslangan tuxumlarni saralash
- Urug'lik tuxumlarini, inkubator joyiga qanday joylashtirish kerak
- Urug'langan tuxumni qanday ajratish mumkin
- Sog'lom va zaif jo'jalarni qanday ajratish mumkin
- Jo'janing rivojlanish jarayoni
- Jo'jalarni boshqarish xonasidagi haroratni, jo'jalar to'plamini va tarqoqlik holatini kuzatish
- Suv dispenseri va oziqlantiruvchi idishlar ko'rinishi va tozalash
- Emlash usuli
- Tumshuqni kaltalsh usuli
- Tovuqlarning ovqatlanish holati va sog'lig'ini qanday tekshirish mumkin (ko'krak mushaklarini kuzatish usuli)
- Tuxum qo'yuvchi tovuqlarning urug'lanishini kuzatish
- Tuxum patnisidan qanday foydalanish kerak
- Tuxum qo'yuvchi tovuq turini va tuxum rangini tekshirish
- Tuxumni chaqib, tuxum sifatini aniqlash
- Jo'jalar, o'rta kattalikdagi jo'jalar va kattalar tovuqlar uchun ozuqani aniqlash
- Bosqichli dezinfektsiya tankini tayyorlash va undan o'tishni kuzatish

4 Gijiyenani boshqarish

1. Molxonaga kirayotganda, kiyimni tekshirish (bosh kiyim, qo'lqop, ish kiyimi, sochiq, etik)
2. Ferma tashqarisidagi odamlardan, bahila so'rash.
3. Tekshirish kerak bo'lgan narsalar (yovvoyi qushlar va sichqonlar kabi mayda hayvonlarning bostirib kirishi, silosdagi mog'or, fermadagi begonalar)
4. Zararkunandalarga qarshi kiyimni, qanday qilib to'g'ri kiyish kerak
5. Dezinfektsiyalash vositasini, qanday suyultirish kerak



Quyidagi topshiriqda, berilgan fikr to'g'ri bo'lsa “o”, noto'g'ri bo'lsa “x” belgisini qo'ying.

<Sigir>

1. Suvdon va suv idishini doimo toza saqlash kerak. ()
2. Sog'in sigirlarini yemish bo'yinlarini cho'zadi, shuning uchun tankdagi yemni, supurishga hojati yo'q. ()
3. Hatto issiq yoz oylarida ham, sog'in sigirlarning tana harorati 39 °C dan oshmaydi. ()
4. Sigirda diareya bo'lsa, butun dumi iflos bo'ladi. ()
5. Ortiqcha sutni sog'ib olmang (mashinada tozalash). ()
6. Sog'ishdan so'ng, so'rg'ichlarni birma-bir sorg'ich kosalaridan olib tashlang. ()
7. Sog'in sigirlar issiqda bezovta bo'ladi. ()

<Cho'chqa>

1. Emish vaqtida, cho'chqa bolasiga issiqlik yetarli emasligi, ezilish natijasida, baxtsiz hodisalarga olib keladi. ()
2. Cho'chqa bolalari sovuqqa chidamli, lekin yetilgan cho'chqalar issiqlikka chidamsiz. ()
3. Agarda, pog'onali dezinfektsiya idishi bo'lsa, etiklarni yuvish shart emas. ()
4. Cho'chqalar uchun faqat bitta turdagi, sun'iy sut mavjud. ()
5. Cho'chqaxonalarda, yomon hidlarni oldini olish uchun go'ngni cho'chqaxonada saqlamaslik kerak. ()

<Parranda>

1. Agarda, parrandachilik uyi yonida o'lik yovvoyi qush topilsa, darhol uni axlatga tashlang. ()
2. Ko'p sonli qushlarni ko'paytirishda shamollatish yomon bo'lib, shuning uchun nafas olish kasalliklariga ehtiyot bo'lish kerak. ()
3. Issiq yoz oylarida, iliq suv ichirish, muhim ahamiyatga ega. ()
4. O'rta yoshdagi jo'jalar, boshqa jo'jalarni cho'qib, ularga zarar yetkazishlari kuzatiladi. ()
5. Go'sht uchun tovuqlar (broylerlar) jo'natishdan bir kun oldin, antibakterial moddalarni o'z ichiga olgan, aralash ozuqa bilan oziqlanishi mumkin. ()

Javoblar

<Sigir>

1.
2. × (Sababi: ozuqa, sigirlar yeyishi oson bo'lgan joyga supurilib, to'planadi.)
3. × (Sababi: Harorat 30°C atrofida bo'lsa, rektal harorat 40°C ga yetishi mumkin.)
4.
5.
6. × (Sababi: 4 ta ko'krak so'rg'ich kosasini, ko'krak uchidan birdaniga olib tashlanadi.)
7.

<Cho'chqa>

1.
2.
3. × (Sababi: etikdagi loy kabi kirlarni yuvgandan so'ng, bosqichli dezinfektsiya idishiga bosing.)
4. × (Sababi: sun'iy sut, cho'chqa bolasining o'sishiga qarab tanlanadi va beriladi.)
5.

<Parranda>

1. × (Sababi: o'ta patogen parranda grippidan ehtiyot bo'lish uchun fermerni xabardor qilish va chorva sog'lomlashtirish markaziga va hokazolarga murojaat qilish kerak.)
2.
3. × (Sababi: issiq yoz oylarida, sovuq suv ichish muhim.)
4.
5. × (Sababi: so'yishdan 7 kun oldin, tovuqlarga antibakterial moddalar bo'lgan ozuqa berilmasligi kerak.)

<Qo'shimcha ma'lumotlar> Chorvachilik terminologiyasi, ko'pincha kundalik ishlarda qo'llaniladi
<Sigir>

Ozuqa---Ozuqalanish.

Oziqlantirish---Chorva mollarini boqish.

Tanlovli oziqlanish---Chorva mollari faqat o'zlari yoqtirgan narsalarni iste'mol qilishadi va ozuqa idishidagi ozuqadan, o'zlari yoqtirmagan narsalarni qoldiradilar.

Tilla stafilokokki---Ko'krak so'rg'ichlarida mastit bo'lsa, uni davolash qiyin bo'ladi.

Quruq moddalarni iste'mol qilish---Tarkibida suv bo'lmagan ozuqa, quruq modda, bir sutkada iste'mol qilingan quruq modda miqdori (kg), quruq modda iste'lom miqdori, deb ataladi.

Sigir podasi tekshiruvi---Bu har oyda, fermerlar bir marta, sog'in sigirlarining sut mahsuldorligi, sut sifati, naslchilik holati va hokazolarni tekshiradigan tizimdir.

Iste'mol uzulishi---Mollarda, ozuqa iste'moli birdan kamayib ketadigan holat.

Bo'sh kunlari soni---Tug'ruqdan so'ng, urug'lantirishgacha bo'lgan, kunlar soni.

Yaqinlashish davri---Bu sog'in sigirlarning sutdan qolishining kechki bosqichiga, aytiladi. Tug'ruqdan 3 hafta oldin bo'lgan davr. Bu perinatal davr, deb ham ataladi.

Oyoq va og'iz kasalligi---Bu juda yuqumli, o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, burun va og'iz shilliq pardalarida, tuyoq terisida pufakchalar paydo bo'ladi, oyoq va og'iz kasalligi virusi sabab bo'ladi. Bu rasmiy ravishda, yuqumli kasallik sifatida belgilangan.

Qoplama material---Qirindilar, guruch qobig'i va bug'doy qobig'i ko'pincha chorva mollariga qulaylik yaratish va shu bilan birga go'ngni kompostlashni rag'batlantirish uchun qoplanadigan material sifatida, ishlatiladi. Molxonadan qoplama materialini olib chiqish, yamash deyiladi.

Og'iz suti---Tug'ilgandan keyin, br necha kun o'tgach, chiqadigan sut.

Sun'iy urug'lantirish---Homiladorlik uchun ayolning jinsiy a'zolariga, urug'ni sun'iy ravishda yuborish.

Stres---Bu chorva mollarini, ruhiy tushkunlik holati.

To'rtinchi oshqozonni siljishi---To'rtinchi oshqozon, normal holatidan, chapga yoki o'ngga siljishi oqibatidagi kasallik, buning natijasida, ozuqa iste'moli va sut mahsuldorligi kamayadi.

Laminit---Bu sigirning tuyog'i tiqilib qoladigan va qattiq og'riq bilan kechadigan, harakat buzilishi bilan kechadigan kasallikdir.

Embrion ko'chirilishi---Homiladorlik uchun ayol jinsiy a'zolariga, embrionni (urug'langan tuxumni) sun'iy ravishda yuborish.

Hayz---Urg'ochilar, erkaklarning juftlashishiga, imkon beradigan holat. Ushbu hayz davrida, sun'iy urug'lantirish amalga oshiriladi.

Kavsh qaytaruvchi---Sigirning qorin bo'shlig'idagi (shirdon) ozuqani tupurib, chaynash va yana yutib yuborish harakati.

Quyushgan moddalar---Mastitli sigirlarning sutida mavjud bo'lgan, katta va kichik quyushgan moddalar.

Tug'ruq---Buzoqning tug'ilishi.

Tug'ruq oralig'i---Ikki yoki undan ortiq sigirlarning tug'ilish sanasi oralig'i yoki undan oldingi tug'ilish sanasi oralig'i.

Emizish---Bu suyuq oziqlantirish bo'lib, tug'ilgandan so'ng darhol sutdan ajratishgacha bo'lgan davr.

Tana holati---Bu teri osti yog'ining to'plangan holatining raqamli qiymati bo'lib, chorva mollarining ortiqcha vaznli yoki juda yengilligini aniqlash uchun asos sifatida qo'llaniladi. Qiymat qanchalik baland bo'lsa, shuncha ko'p yog' to'plangan bo'ladi.

Mega fermasi---O'ta yirik, korporativ fermasi, nazarda tutiladi.

TDN---Bu ozuqada, hazm bo'ladigan ozuqa moddalarining umumiy miqdori bo'lib, yuqori qiymatga ega bo'lgan ozuqalar, yuqori quvvat tarkibiga ega.

<Cho'chqa>

Suyuq oziqlantirish---Ozuqa va suvni aralashtirish va ularni yorma holatida, oziqlantirish usuli.

Ozuqa---Oziqlanish.

Oziqlantirish---Chorva mollarini boqish.

Oziqlantirish---Tug'ilgandan keyin, ilk marotaba o'smirlarni oziqlantirish uchun sun'iy sut qo'llaniladi.

“Ogako” cho'chqaxonalari---Najas, siydik va qoplama materiallari ajratilmagan cho'chqaxona.

Ozuqa uzulishi---Cho'chqalarda, ozuqa iste'moli keskin pasayib ketadigan holat.

3 karra urchitilgan, cho'chqa---Bu uchta zot yoki uchta shtamm yordamida, gibrid cho'chqalarni yetishtirish usuli. Ikki zot orasiga, uchinchi zot erkak cho'chqasi bilan ikki zot urchitilishidan hosil bo'lgan urg'ochi cho'chqalarning chatishtirishi natijasida, hosil qilingan cho'chqa.

Qoplama materiallari---Qirindilar, guruch qobig'i va bug'doy qobig'i ko'pincha chorva mollariga qulaylik yaratish va shu bilan birga go'ngni kompostlashni rag'batlantirish uchun qoplanadigan material sifatida, ishlatiladi.

Og'iz suti---Tug'ilgandan keyin bir necha kun o'tgach, chiqadigan sut.

Sun'iy sut---Emizish davrida, cho'chqa bolasiga ikki xil ozuqa beriladi : tana vazni 10 kg gacha bo'lganda, beriladigan sun'iy sut “A” va tana vazni 30 kg gacha bo'lganidan keyin, beriladigan sun'iy “B”..

PRRS---Cho'chqachilik, respirator kasallik sindromi

PED---Cho'chqa epidemiyasi- diareya (ich ketish)

SPF cho'chqa---Muayyan patogenga ega bo'lmagan cho'chqalar. SPF cho'chqalarining asosi, to'g'ridan-to'g'ri ona cho'chqa qornidan, kesarcha kesish yo'li bilan, sun'iy ko'paytirish yo'li bilan, cho'chqalar boqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

(Eslatma) Bo'rdoqiga boqilgan cho'chqalar, nasldor cho'chqalar, ona cho'chqalar va nasldor cho'chqalar “hiikubuta”, “hanshokubuta”, “hahabuta”, “tanebuta”, deb ham ataladi.

<Parrandalar>

Yosh jo'jalarni boqish---Tuxumdan chiqqan jo'jalarni boqish.

Ozuqa---Oziqlanish.

Oziqlantirish---Chorva mollarini boqish.

Ozuqa berish---Ko'p yoki kam oziqlanish holati.

Oziqlantirish---Ozuqa idishidagi, ozuqa tarkibiy qismlariga o'zgartirish kiritib, tuzatish.

Oziqlantirish---Tug'ilgandan keyin, ilk marta o'smirlarni oziqlantirish. Jo'jalarga, ozuqa suv bilan aralashtirilib beriladi.

Pat almashtirish (tashash)---Yangi patlarning o'sishi va eski patlarni tushirishi, almashishi. Yozning oxiridan, kuzgacha kuzatish mumkin. Tuxum qo'yuvchi tovuqlarning ta'tilga chiqishi, odatiy holdir.

Kannibalizm---Bir guruhdagi tovuqlar, noqulay muhit va to'yib ovqatlanmaslikdan ta'sirlanadi va tovuqlar bir-birlarini cho'qiydi. Bunda boshqa tovuqlar, bir boshqa tovuqlarni o'ldirishlari mumkin.

Issqlik ta'minoti---Jo'jalar saqlanadigan xonani issiq tutish lozim.

Mayda toshlar---Tovuqning oshqozonida, (mushak oshqozonida) donni maydalaydigan toshlar.

Amaliy tovuq---Tijoratdagi tovuq sifatida ham tanilgan. Tuxum qo'yish qobiliyati yuqori va go'sht berish xususiyatlarga ega bo'lgan hamda keng qo'llaniladigan, tovuq zoti.

Mahalliy tovuq---Amaliy tovuqlar, broylerlardan farqli o'laroq, ular mintaqaning mahalliy navlari bo'lib, yuqori sifatli tovuqni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Tumshuqning kaltalamishi---Tovuqning yuqori va pastki tumshug'ining 2 dan 1qismi kaltalanadi. Bu o'rta yoshdagi jo'jalarda, patlarni yulishni oldini olish uchun amalga oshiriladi. "Debeek" nomi bilan ham tanilgan.

Cho'qish tartibi---Guruhdagi tovuqlar raqibni tumshug'i bilan urishi yoki baland sakrashi va raqibni tepish kabi hujumkor harakatlarni bajaradi. Bu ijtimoiy hayot tartibini saqlaydigan, individlar orasidagi tartibni belgilovchi, instinktiv harakatdir.

Zichlikni oshirish---Muayyan hududda joylashtirish kerak bo'lganidan ko'ra ko'proq jo'jalarni joylashtirish. Bu jo'jalarning sog'lig'iga, salbiy ta'sir qiladi.

Support project to properly accept foreigners for agricultural support

Agricultural Skill Assessment Test
Text: General livestock farming
Uzbek Edition

Published by National Chamber of Agriculture, August 2021

Churorodokijunkyokai Bldg. 9-8 Nibancho, Chiyoda-ku, Tokyo, Japan 102-0084

Dedicated Website <http://asat-nca.jp/>

© All rights reserved